



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI**



**YANGI O'ZBEKISTONNING
TARAQQIYOT
SATRATEGIYASI VA
JAMIYATNING MA'NAVIY
ASOSLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT SATRATEGIYASI VA
JAMIYATNING MA’NAVIY ASOSLARI moduli bo‘yicha
(Barcha yo‘nalishlar uchun)**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Farg‘ona – 2026

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar: **B.Ganiyev** – falsafa fanlar doktori (DSc), dotsent

Taqrizchi: **M.Mamatov** – falsafa fanlari doktori (DSc), professor

*Ishchi o'quv dasturi FarDU Ilmiy Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan
(2025 yil 27 dekabrda 5- sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI	13
III.	NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI	23
IV.	AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI	40
V.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	73
VI.	NAZORAT SAVOLLARI	80

A decorative vertical bar consisting of a thin white line and a slightly thicker black line, positioned to the left of the section header.

I. ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF–5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son va 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son va 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minlash, tinglovchilarning davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning vazifalari

Tinglovchilarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy maqsad va yo‘nalishlar to‘g‘risida chuqur bilim olishni ta’minlash, davlat va jamiyat hayotida, shuningdek yoshlarni tarbiyalashda ma’naviyat va axloq masalalarining ahamiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish va baholash, bu borada zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni yanada shakllantirish modulining maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

“Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;

- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;

- vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirishni;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- “O'zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;

- O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy innovasion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiq etish;

- fanlarni o'qitishda ta'lim berishning modulli tizimidan kengroq foydalanish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;

- fanni o'qitishda amaliyot materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;

- xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish;

- qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlodda erkinlik va mustaqillik qadrini chuqur anglash;

- fan doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'limni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq tegishli amaliyot

materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

- vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirish;

- yoshlarni tarixiy saboqlar asosida ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, g'oyaviy barqaror, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini his etadigan faol vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bilan bog'liq turli mamlakatlarda qabul qilingan rivojlanish dasturlari, yo'l xarita va dasturlar, istiqbolli rejalarga oid xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilik va amaliyot bilan qiyosiy tahlil qila olish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayoni nazariy tayyorgarligini amaliyot bilan uzviy bog'liqligini, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

- xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish;

- qatag'on siyosatining oqibatlari, inson qadr-qimmatini poymol etilgan davr saboqlari, tarixiy adolatni tiklash, xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida

tashkil etiladi.

Modul doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nazarda tutilib, bu borada davlat va jamiyat hayotida katta amaliy ish tajribasiga, obro'-e'tibor va nufuzga, yuksak lavozim va martabaga, ilmiy yutuq va unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, ilmiy jamoatchilik va akademik soha vakillari, davlat boshqaruvi organlari xodimlari va boshqa mashhur shaxslar bilan adabiy va ma'naviy-ma'rifiy o'chrashuvlar tashkil etiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli o'quv rejadagi "Oliy ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar" va "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish" va boshqa modullar bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog'langan holda pedagoglarning davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik va ularga daxldorlik tuyg'ularini oshirishga, shuningdek jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyati, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi, shuningdek 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi hamda Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlariga oid kasbiy bilim va malakalarga ega bo'ladilar.

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o‘quv yuklamasi soatlari		
		Jami	Auditoriya o‘quv yuklamasi	
			Nazariy	Amaliy
1.	“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari.	2	2	
2.	Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi.	2		2
3.	2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi.	2		2
4.	Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash.	2	2	2
5.	Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Qatag‘on qurbonlarini yod etish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.	2		2
Jami		12	4	8

NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1- mavzu. Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari (2 nazariy)

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlar mazmuni va mohiyati. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining o‘rni va ahamiyati. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim,

tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

2- mavzu. Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi (2 amaliy)

Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

3-mavzu. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi (2 amaliy)

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

4- mavzu. Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash (2 nazariy, 2 amaliy)

Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

5- mavzu. Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari (2 amaliy)

Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

Xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish. Qatag'on siyosatining oqibatlari, inson qadr-qimmatini poymol etilgan davr saboqlari, tarixiy adolatni tiklash, xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. Qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlodda erkinlik va mustaqillik qadrini chuqur anglash, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirish. Yoshlarni tarixiy saboqlar asosida ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, g'oyaviy barqaror, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mamlakat taraqqiyotiga


daxldorlik tuygʻusini his etadigan faol vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash

OʻQITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda taʼlim berish koʻzda tutilgan:

- binar maʼruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- On-line maʼruza;
- trening, videotrening;
- kichik maʼruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);

- klaster, sinkveyn (axborot yoki biron-bir tushunchani qisqa bayonini tuzish koʻnikmani shakllantiradi);
- kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);
- blits oʻyin, qora quti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yoʻl-yoʻlakay aniqlashga yoʻnaltiriladi).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda -yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlarini so’raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog’ozlarga yoki doskaga) to’planadi;
4. Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.


“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbatı” metodining tuzilmasi

“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchılarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchılarni ob‘ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchılarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.


“Rolli o‘yin” metodi-ta‘lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan

kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar

ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlar ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi-bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Professor-o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar professor-o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Professor-o‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. Professor-o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me‘yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me‘yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Professor-o‘qituvchi “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’minlanishi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhli ish;
- jamoa ishi.

II. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Ma’ruza. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari.

Reja:

1. Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlar mazmuni va mohiyati.
2. 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining o‘rni va ahamiyati.
3. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy ma’rifiy asoslari.

***Tayanch tushunchalar:** Strategiya, taraqqiyot strategiyasi, jamiyat rivojlanishining zamonaviy asoslari, milliy taraqqiyot mezonlari, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.*

Davlatni yuqori marralar sari yetaklovchi, jamiyatni umumiy maqsad va manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirgan alohida strategiyasining mavjud bo‘lishi o‘sha davlat va jamiyat uchun rivojlanish sari qo‘yiladigan dastlabki qadami bo‘lib hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish, milliy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish kabi umummilliy maqsadlar birinchi navbatda davlatning aniq strategiya va dasturlari orqali amalga oshadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, taraqqiyotning beqiyos katta imkoniyatlari ochildi. Zero, milliy resurslarni mushtarak maqsadlari yo‘lida safarbar etish, o‘zining rivojlanish yo‘lini o‘zi mustaqil belgilashi kabi imkoniyatlar istiqlolning dastlabki davrlaridan boshlab paydo bo‘ldi. Eng asosiysi, milliy mustaqillik tufayli xalqimiz siyosiy mutelik, qaramlik asoratidan qutildi. Davlat suvereniteti natijasida jamiyatimizni isloh etish va zamonaviy siyosiy taraqqiyot jarayonlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin va siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich barpo qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. O‘zbekiston istiqlol tufayli o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi bo‘lgan tarixiy davriga qadam qo‘ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o‘zining tub manfaatlarini va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shart-sharoitlarga erishdi.

Har qanday faoliyatning yakunida kutilgan natijalarni olish uni aniq strategiya asosida olib borishni taqozo etadi. Strategiya tushunchasi yunon tilidan στρατηγία – sarkardaning san’ati iborasidan olingan bo‘lib, dastlab harbiy ibora sifatida keng qo‘llanilgan. Keyinchalik esa, mazkur ibora turli maqsadlarni o‘zida jamlagan va o‘sha maqsadlarga erishish yo‘lidagi umumiy hatti-harakatlar majmui o‘laroq qayd etilgan. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, strategiyaning turli nom va iboralar bilan atalganini ko‘rish mumkin. Masalan, taraqqiyot modeli, rivojlanish yo‘llari, dasturlari, milliy dasturlar va h.k. Dunyo tarixida, rivojlanishning “Yapon modeli”, “AQSh modeli”, “Shved modeli”, “Turk modeli” va boshqa o‘zining natijadorligi bilan alohida ajralib turuvchi modellarni ko‘rsatish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillari sobiq ittifoqdan qolgan siyosiy boshqaruvdan butunlay voz kechish va yangi demokratik mezonlarni, zamonaviy bozor munosabatlariga asoslangan taraqqiyot yo‘lini (strategiyasini) tanlash asosiy vazifa sifatida belgilab olindi. Mazkur vazifadan kelib chiqib, “Taraqqiyotning o‘zbek modeli” ishlab chiqildi. Modelni yaratishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi, taraqqiyot yo‘li, turli dasturlar keng o‘rganilib, xalqaro tajriba va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlanishning eng muhim besh tamoyili belgilandi. Mazkur besh tamoyilning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat etib belgilandi:

Birinchi tamoyil, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, ya’ni iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas. Mazkur tamoyilga ko‘ra, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur;

Ikkinchi tamoyil, amalga oshiriladigan islohotlar davlat tomonidan aniq dasturlar asosida muvofiqlashtirilishi, davlat bosh islohotchi bo‘lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o‘tkazishi, jtalab etiladi;

Uchinchi tamoyil, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi lozim. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim;

To‘rtinchi tamoyil, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu bozor munosabatlariga o‘tishda aholining ijtimoiy imkoniyatlari e’tiborga olinishini ta’minlaydi;

Beshinchi tamoyil, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar"siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, qabul qilingan milliy dasturlar, loyihalar, strategiya va modellarni muayyan davr o'tgandan so'ng yangi davr ehtiyojlaridan kelib chiqib modernizatsiya qilish, takomillashtirish yoki yangi stragegiyani yaratish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 7-fevral kungi **"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"**gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda **O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** qabul qilindi.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning g'oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg'or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o'rin egallashi asosiy maqsad etib belgilangan mazkur Strategiya mamlakatning yaqin istiqboldagi taraqqiyot yo'lining bosh ustuvor hujjati sifatida xalqaro jamoatchilik, nufuzli ekspert-mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, siyosatshunoslar tomonidan yuqori baholandi.

Harakatlar strategiyasida O'zbekistonni rivojlantirishning **beshta ustuvor yo'nalishi** belgilab berilgan bo'lib, ularning har birida mamlakatda yangi bosqichdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini ta'minlashga oid aniq chora-tadbirlar o'z aksini topgan.

1. "Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish" deb nomlangan birinchi yo'nalishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

2. "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarida samaradorlikni oshirish, sudlarni chinakam "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifati tubdan yaxshilash, sud-huquq tizimida yangi yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan.

3. "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash,

valyutani tartibga solish, O'zbekistonga xorij investitsiyalarini keng jalb qilish, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yuksaltirish, umuman, mamlakat iqtisodini jadal rivojlantirish bo'yicha tegishli vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhim o'rin tutadi.

4. "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi, ayniqsa yoshlarning bandligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan.

5. "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida esa, davlatning mustaqilligini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga oid chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek, dunyoning barcha davlatlari, ayniqsa, birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan o'zaro teng manfaatlarga asoslangan do'stona aloqalar va mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi tinchlikparvar siyosatga tayangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar jamiyat taraqqiyotida o'zining aniq natijalarini ko'rsatgandan so'ng, 2022 yildan boshlab yangi davr chaqiriqlaridan kelib chiqqan holda **"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi** qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ko'lami haqida gapirganda o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mindan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini

kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur ikki hujjatning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonini keltirish mumkin. **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili** ga asosan ishlab chiqilgan quyidagi **yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan**

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o‘rinlarda – Taraqqiyot strategiyasi) va uni **“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga** 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. 2022 yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so‘m va 11,7 mlrd dollar ajratilishi belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan:

- Birinchi yo‘nalish: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- Ikkinchi yo‘nalish: O‘zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- Uchinchi yo‘nalish: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;
- To‘rtinchi yo‘nalish: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- Beshinchi yo‘nalish: ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

- Oltinchi yo‘nalish: milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

- Yettinchi yo‘nalish: O‘zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish;

Harakatlar strategiyasidan farqli o‘laroq, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning **7 ta** ustuvor yo‘nalishi doirasida **100 ta** maqsadga erishishga qaratilgan va 2022 yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan **398 ta** chora-tadbirni o‘z ichiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan sa’y-harakatlar ham aniq. Ular, o‘z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta’minlandi. Bunga, xususan faqatgina uchta asosiy elektron platformaga jamoatchilik muhokamalari yakuni bo‘yicha kelib tushgan **17 mingdan** ziyod fikr-mulohazalar yaqqol dalil bo‘la oladi. Bunda, Harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan xalq bilan muloqot tizimi muhim rol o‘ynaganini alohida e’tirof etish joiz. Chunki, aynan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida davlat organlarining aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi, yildan-yilga shaffoflik ortib bordi. Bu esa o‘z-o‘zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini tubdan o‘zgartirdi, uning faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligini kuchaytirdi. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Strategiyada yaqin va o‘rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo‘lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. **“Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari”** degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta’minlangani holda davom ettiriladi, to‘plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat’iylilik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsiyenti ortib, olib boriladigan islohotlarning samaradorligi ortadi.

Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo‘yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning **“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo‘yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E’tiborli jihati shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas’ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan. Komissiya a’zolari Taraqqiyot strategiyasining

bevosita amalga oshirilishi va tegishli mutassaddilar ustidan bu borada nazoratning ta'minlanishiga mas'ul etib belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalaru sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining **xalq vakillari**– deputatlar oldidagi hisobdorligi ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Donishmanlar aytganidek hayot bir joyda to'xtab turmaydi. Qabul qilingan har qanday qonun, qaror va boshqa meyoriy hujjatlar vaqt o'tib o'z ta'sirchanligini kamaytirishi, davrning yangi chaqiriqlariga mos kelmasligi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, **2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni bugungi davr chaqiriqlaridan kelib chiqib, hamda kelajak rejalarni belgilash uchun yangi huquqiy vosita sifatida e'tirof etish va qabul qilish mumkin.**

Farmon bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida o'z dolzarbligini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta'minlanadi.

Nazorat savollari:

1. Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntiring.

2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining jamiyat rivojidagi o'rni va ahamiyati izohlang.

3. Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan asosiy yo'nalish, maqsad va vazifalardan kelib chiqib Yangi O'zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy ma'rifiy asoslariga doir fikrlaringizni bayon qiling.

4. Strategiyada belgilangan yo'nalishlarning sohangizga moslarini aniqlang va ularni o'z xulosalaringizda ko'rsatib bering.

2-Mavzu. Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash (2 soat)

Reja.

1. Ijtimoiy davlat tushunchasining mazmuni.

2. Gender tenglik va yoshlar siyosati.

3. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek “Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamli islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Yoki Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvida “Asosiy qonunimizda “O'zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu g'oyaning tub negizida ham avvalo, inson qadrini ulug'lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir”.

Ijtimoiy davlat – bu davlatning shunday modeliki, unda ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam berish maqsadida moddiy boyliklarni qayta taqsimlashga qaratilgan siyosat yuritiladi.

Jahon tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, “Ijtimoiy davlat” tushunchasini ilk bor 1850 yilda nemis iqtisodchi olimi va davlat arbobi Lorens fon Shtayn muomalaga kiritgan. U davlatning muhim funktsiyalari ro'yxatiga “turli xil darajadagi barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o'z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlash”ni ham kiritadi.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi 1949 yilgi Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, Germaniya “demokratik va ijtimoiy federal davlat”, deb e'lon qilingan.

Shuningdek, Frantsiyaning 1958 yilgi Konstitutsiyasida “bo‘linmas, dunyoviy, ijtimoiy, demokratik respublika”, Ispaniyaning 1978 yilgi Konstitutsiyasida esa “huquqiy, demokratik, ijtimoiy davlat” tamoyili o‘z ifodasini topgan.

Ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandivaniya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi.

Birinchidan, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o‘zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o‘z bo‘yniga oladi. Bu davlatlar o‘z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun mas’ul bo‘ladi. Bu faoliyat davlat byujeti va ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, ya’ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Frantsiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas’ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari tomonidan qoplanadi. Ya’ni ijtimoiy ta’minot byujetdan ajratiladigan mablag‘lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug‘urta badallaridan ta’minlanadi.

Shunday qilib, birinchidan, Skandivaniya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo‘yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag‘lar ajratiladi, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o‘rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta’minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne’matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud.

Uchinchidan, ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

To‘rtinchidan, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik O‘zbekistonda ham rivojlanib bormoqda. O‘ziga xos yutuqlar bor. Endilikda bu tizimni Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan.

Mamlakatda ijtimoiy davlat – ijtimoiy adolatning asosi sifatida ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligiga erishish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish lozim:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimini yanada rivojlantirish;

- kam ta'minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini ob'ektiv baholash va sub'ektiv yondashuvlarni bartaraf etish;

- nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha faoliyatni davom ettirish;

implementatsiya(*lot. implere - bajarish, ijro etish; ing.implementation*) – davlat tomonidan xalqaro huquqiy normalarni o'z milliy konunchiligiga joriy kilish hududida amalga oshirish. Implementatsiya xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka qo'shish (ko'chirish, singdirish) yo'li bilan hamda xalqaro huquqiy normalarni milliy huquqiy tizimning bir qismi deb e'lon qilish va davlatning butun huquqiy tizimi yoki huquqiy tartibga solishning muayyan sohasi doirasida xalqaro huquqiy normalarning milliy huquq normalariga nisbatan ustunligini o'rnatish yo'li;

- tibbiy yordam darajasi va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o'sish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va oldini olish.

O'zbekiston xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirgan islohotlar gender tenglikni ta'minlashda salmoqli yutuqlarga olib keldi.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi hamda Milliy komissiya tashkil etilishi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, gender bilan bog'liq muammolarni hal etishga nisbatan sodiqlik kuchli ekanini ifodalaydi hamda sa'y-harakatlarni tizimlashtiradi.

Ijtimoiy muammolarga duch kelayotgan ayollarni qo'llabquvvatlash maqsadida, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlari tashkil etildi.

Bugungi kunda 9 940 dan ortiq mahalla fuqarolar yig'inida oila va xotin-qizlar muammolarini bevosita hal etish uchun xotin-qizlar faollari lavozimi joriy etilgan.

306 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyatda ayollar huquqlarini ilgari surish va gender tenglikni ta'minlashda faol ishtirok etmoqda.

2019 yilda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi qonunda gender va jins asosida kamsitishning bevosita va bilvosita shakllari aniq belgilab berilgan. Shuningdek, gender kamsitishlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizadan o'tkazish joriy etilgan. Qonunda Hukumatdan gender bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plab borish talabi aks etgan.

Ayollar ijtimoiy munosabatlarni emas, gender munosabatlarni o'zgartirish tarafdorlaridir.

Ular ijtimoiy munosabatlarning xususiyati bilan qiziqmaydilar; gender tenglik ular uchun erkak egallagan amallarni egallab, erkak bilgan narsalarni bilib, oilasini ta'minlab yashashdir. Feministlar hech qachon jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi, strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalarni ilgari surmagan. Ular ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirmay gender tenglikni ta'minlab bo'lmashligini xayoliga keltirmagan. Gender tenglik ayol va erkak munosabatlarida teng huquqlilikni ta'minlashgina emas, u butun ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qodir voqelikdir. Gender tenglikni eski ijtimoiy munosabatlar ustiga qurib bo'lmaydi, u insoniyatni yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratishga undaydi.

Birinchi Xalqaro xotin-qizlar jamiyati 1867 yili Londonda tashkil etilgan. Hayratli tomoni shundaki, uning prezidenti etib erkak –taniqli sotsiolog D.S.Mill saylangan. Uning ayollar masalasini qanday o'rgangani va hal etgani ma'lum emas.

Ayol va erkakning biror guruh yoki mehnat jamoasini boshqarishida ham o'ziga xosliklar borligi ko'zga tashlanadi. Bu borada ko'plab tadqiqotlar, kuzatishlar o'tkazilgan, biz ularni takrorlab o'tirmaymiz. Shuning uchun mavzumizga oid fikrlarni umumlashtirgan tarzda keltirish bilan cheklanamiz.

Birinchidan, ayol-lider asosiy diqqatini kishilararo munosabatlarga, kim kim bilan yaqin, do'st, kimning obro'si yuqori, xodimlar kimning fikrlariga ko'proq ergashadi, quloq soladi kabi psixologik omillarga qaratadi. Jamoadagi sotsial-psixologik muhitni bilish lider uchun muhimdir, ammo u bilan cheklanib bosh maqsad — ishni unutish mayda guruhlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bunday mayda guruhlarni umummanfaatlarga xizmat qildirish qiyin kechadi, ular jamoada mayda gap-so'zlarni, fisqu fasodni ko'paytiradi, natijada belgilangan, oldga qo'yilgan vazifa bajarilmaydi. Bajarilgan taqdirda ham unga cheksiz to'qnashuvlar, asab buzishlar, “san-man”lar orqali erishiladi.

Erkak – lider asosiy diqqatini jamoa oldidagi vazifani, rejani bajarishga qaratadi, u ish, mehnat kishilarni birlashtiruvchi, mayda gap-so'zlarga o'rin qoldirmaydigan omil ekanini biladi. Jamoada mayda guruhlarning paydo bo'lishi tabiiy holdir, ularni taqiqlash mumkin emas. Ishdan keyin yuzaga keladigan mayda guruhlar emas, bevosita ish paytida, ishga taalluqli maqsadni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga intiluvchi mayda guruhlar xavflidir. Buni erkak – lider biladi, shuning uchun u bunday destruktiv maqsadga ega mayda guruhlariga “jang” e'lon qilishdan qaytmaydi.

Ikkinchidan, ayol – lider serhis, sertuyg'u jins bo'lgani uchun boshqarish ishlarida ham emotsiyaga beriladi. Shu bois u jamoani birlashtiruvchi strategik maqsad ishlab chiqolmaydi, uni oson va tez erishiladigan yutuq qiziqtiradi. U xodimlar o'rtasidagi mayda gap-so'zlarga aralashib, ushbu gap-so'zlardan yuqoriroq maqsad zarurligini sezmaydi. Ko'p gapirib goho xodimlarini ishdan, asosiy maqsaddan chalg'itadi, o'zining tashkilotchiligini, liderligini so'zamolligi bilan namoyon qilmoqchi bo'ladi. Vazifaning xususiyatlarini yaxshi bilgan erkak ayol-liderdagi ushbu zaiflikni darrov sezadi, agar istasa u ayoldan lavozimni tortib olishi mumkin. Erkak-liderda uzoqni ko'zlab ish yuritish, jamoa oldiga murakkab strategik maqsad qo'yish xislatlari mavjud. U xodimlarining mayda gap-so'zlariga aralashvermaydi, ularni

vazifasini bajarishiga qarab baholaydi. Erkak-lider talabchanlikni o'zining asosiy xususiyati deb biladi, goho uning talabchanligi qo'rslik, shafqatsizlik darajasiga ko'tarilishi mumkin. Ayol-liderning kishilararo munosabatlardan, psixologik muhitdan xabardor yurishi jamoada yumshoq, oshno-og'aynichilik aloqalarini, erkak-liderdagi talabchanlik, ishni o'ylash esa sovuq, rasmiy munosabatlarni shakllantiradi. Shuning uchun psixologlar ahil mehnat jamoasini shakllantirish uchun ayol va erkak liderlardagi yuqoridagi xislatlardan bab-barobar, ratsional foydalanishni maslahat beradilar.

Uchinchi*dan*, ayol-liderga yo oilani yoki ishni tanlashga to'g'ri kelganida u, shubhasiz, birinchisini tanlaydi. Uning uchun oilasi, farzandlaridan qadrlil narsa yo'q. *Kuzatishlardan ma'lumki, 70-80% ayol hayotiy maqsadi, umr mazmuni deb oilasini, 80% yaqin erkak esa ishini ko'rsatadi.*

Ayol oilasi, farzandlari uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga tayyor. U farzandi yengilgina shamollaganini bilgan zahoti uni ko'tarib shifoxonaga chopadi. Poliklinikaga qatnovchilarning 80% ziyodi ayollardir. Shuning uchun oilasi notinch ayol hech qachon berilib, jon kuydirib ishlaymaydi, chunki uning fikri-zikri uyida bo'ladi. Erkak esa mudom ishini, lavozimini, jamoa oldidagi mas'ulligini o'ylaydi. Ish uning borlig'idir. Erkak-lider xastaligiga qaramaydi, dam olish kunlarisiz, hatto mehnat ta'tilisiz ishlashdan qaytmaydi. Uning uchun 8-9 soatlik ish kuni yo'q, u vaqtga qaramay ishlashdan huzur oladi. Erkak-lider ishga oilaviy tinchligini, farovonligini qurbon qilishdan ham qaytmaydi, uning psixologiyasi bor kuchini, bilimni ko'chaga, dala va qirga sarflashga qaratilgan. Ko'pincha ayolga ushbu xislatlar erkakni toshmehr, oilasiga befarq qilib ko'rsatadi. Bunday qarash er-xotin munosabatlarini keskinlashtiradi.

To'rtinchi*dan*, ayol-lider tanqidni juda og'ir qabul qiladi; tanqid ayolni falaj qilib qo'yadi. U muxolifining tanqidini kechirolmaydi, imkoni bo'lgan zahoti undan o'ch oladi. Ayol-lider xushomadni, muloyimlikni yoqtiradi, xodimlarining ishchanligini ham ushbu xislatlar orqali baholaydi. Erkak-lider tortishib, bahslashib ishlashga moyil, u raqiblarining tanqidi yoki hujumidan qo'rqmaydi. Tanqid, o'zini o'zi tanqid jamoani birlashib ishlashga, xatolarni bartaraf etishga yordam berishini u biladi.

Beshinchi*dan*, ayol-lider kishilardagi mehribonlikni, saxiylikni, hamdardlik va murosas qilib yashashni qadrlaydi, ularni mehnat jamoasida qaror toptirilishini zarur xislatlar deb ko'rsatadi. Erkak-lider esa dovyuraklikni, ishchanlikni va yetakchilikni, o'ziga ishonishni muhim xislatlar deb biladi va liderlardan shunday fazilatlarni talab qiladi. Keyingi yillarda ayol-liderlar ham, erkak-liderlar ham tadbirkorlikni eng zarur fazilat deb atayotgani qayd etilmoqda. Chamasi bozor iqtisodiyoti, kishilarning farovon va badavlat yashash istagi tadbirkorlikni asosiy fazilatlardan biriga aylantirmoqda.

Bugun zamon shunday o'zgaryaptiki, taraqqiyotning yuqori darajasiga chiqish uchun ilg'or texnologiyalar, nano texnologiyalar bilan shug'ullanadigan, dunyoga tatiydigan kashfiyotlar qila oladigan avlodni voyaga yetkazish talab etiladi. Buning uchun, o'ylashimcha, biz nafaqat yoshlarga, shu bilan birga, o'zimizga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirishimiz,

eski ko'nikmalar ta'siridan chiqib, yangi qadriyatlarga, yangi chaqiruvlarga moslashishimiz zarur. Bunga juda sharaflı va buyuk masala, deb qarashimiz kerak.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga ko'ra **“O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish”** Konsepsiyasi qabul qilingan. Unda ta'kidlanishicha, “O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilga rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, **2030 yilgacha mo'ljallangan “Yoshlar strategiyasi”**, Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan “O'zbekiston yoshlari” forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2017 yildagi 72-sessiyasida BMTning ***Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini*** qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, **“Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi”**, - deya alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta'lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2019 yil 3**

maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi. Mazkur konsepsiya **8 ta bob** va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan **61 ta** maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi **4 bosqichdan** iborat bo'ladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

Buyuk davlat arbobi Indira Gandining **"Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz"**, degan so'zlarida katta hayotiy haqiqat borligini albatta hammamiz yaxshi tushunamiz. Shuning uchun joriy yilda qishloq joylarda yashayotgan, kam ta'minlangan oilalarga mansub qizlarimiz oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limida davlat granti asosida o'qishlari uchun 940 ta o'rin ajratdik.

O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, faylasuf olimi Abu Nasr Forobiy (870–950) insonni mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson o'zining ongi, aqli, sezgi a'zolari tufayli olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga ega. Forobiyning tarbiya nazariyasi insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Uning insonparvarlik g'oyalari zaminida ta'lim-tarbiya, inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo'l-yo'riqlari, ilm-ma'rifatga erishish yo'llari va shartlari, ijtimoiy muammolarni yechish usullari kabi masalalar turadi. Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Aql ma'nolari haqida», «Ixso al-ulum» nomli asarlarida insonga ta'lim va tarbiya berish zaruriyati va bunda nimaga asoslanish lozimligi, ta'lim-tarbiya usullari, undan kutilgan maqsadlar masalalari asosiy o'rin egallaydi. Forobiy ta'lim va tarbiyani bir-biridan farq qiladi. Uning fikricha, ta'lim so'z bilan, bir narsani uqtirish, o'rganish bilan amalga oshiriladi, yoshlar nazariy bilimlarni shu ta'lim yordamida egallaydilar. *Ta'lim berishda Forobiyning ta'biricha, yoshlarni nazariy bilimlarga, falsafiy ilmlarga o'rgatish, ular aqlini barcha fanlarning asoslari bilan boyitish nazarda tutiladi.* Tarbiyalashda esa yoshlarga ma'naviy-axloqiy qoidalar, xulq-odob me'yorlari, amaliy san'at, ya'ni turli hunarlar o'rgatiladi, ular ongiga faoliyat tartiblarini singdirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi. ***Ta'lim ham, tarbiya ham yoshlarning haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun nihoyatda zarurdir, deyiladi.*** Farobiy o'z asarlarida tarbiyaning barcha turlari, inson yetukligining barcha tomon va belgilari, jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalar to'g'risida ham fikr bildiradi. Forobiy insonni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash vazifalariga va bu yo'lda qo'llanadigan ta'lim-tarbiya usullari, vositalariga juda katta e'tibor beradi. *U ta'lim va tarbiya berishda tarbiyalanuvchiga xos xususiyatni, xohish, intilishni,*

ruhiy mayllarni hisobga olib, ta'lim-tarbiyani asta-sekin tushuntirish, anglatish yo'li bilan olib borish, qo'llanadigan usulni mo'ljallangan maqsad tomon yo'naltirish kerakligini aytadi. U bu ikki usul yetuk va mukammal insonni yetishtirishga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Al-Forobiy fikricha: "Insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy yo'nalishga erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir".

Ulug' allomamiz Alisher Navoiy oilada bolalarning tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul, degan barcha mutafakkirlarning fikriga qo'shilgan holda, insonning voyaga yetishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosligini aytib, bu jarayonni azaliy an'analarga tayangan holda amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi. O'rganilayotgan bilimlarni yod olish, xotirada saqlash va kezi kelganda tez-tez takrorlab turish ta'lim va tarbiya jarayonida muhim o'rin egallab, bola xotirasini mustahkamlaydi, ilmlar chashmasiga kirib borishni ta'minlaydi, tarbiyalanuvchida muayyan tartib-intizomini shakllantiradi, bahs-munozara yuritish madaniyatini yuksaltiradi.

Ahmad Donish (1827–1898) XIX asrda yashab, ijod etgan buyuk mutafakkirlarning pedagogik nazariyalarini, ta'lim-tarbiya haqida bildirgan fikr, ta'limotlarini davom ettirgan holda «Navodir ul-vaqoe'» asarida bu masalalar bo'yicha o'z g'oyalarini bayon etdi. Ahmad Donish fikricha "yosh avlodda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik tuyg'usini, odamlarda ozodlikka va mustaqillikka intilish, muhabbat tuyg'usini tarbiyalash kerak, deydi. Ahmad Donish farzandlariga nasihat qilib, "Agar birov bilan suhbat qurmoqchi bo'lsalaring, o'z sifati bilan xalqqa yaqin bo'lgan aqlli, hushyor kishilar bilan do'stlik aloqasini bog'langlar, chunki oqil odamlar hech kimga yomonlikni istamaydilar. Aqlli odamlarning alomati ulardagi yaxshilikning yomonlikdan ko'proq bo'lishida yoki barobar bo'lishidadir. Bunday odamlar olimlar, qalam ahllari ichidan topiladi", deydi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy davlatning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
2. Gender tengligining jamiyat rivojida o'rni va ahamiyati.
3. Yoshlar masalasining siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy ma'rifiy asoslariga doir fikrlaringizni bayon qiling.
4. Uzluksiz ma'naviy tarbiyaning mazmuni.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.

2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar

Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.

3. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 13 iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu maʼsadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma’ruzasidan http://uza.uz/oz/politics/qonun-va-adolat-ustuvorligini-taminlash-barcha-ezgu-masadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018 y.

III. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>

2. <http://www.norma.uz>

3. <http://www.gov.uz>

4. <http://www.strategy.uz>

5. <https://president.uz>

6. <http://www.edu.uz>

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy. Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi (2 soat)

Reja:

1. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishning asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyati.
3. Jamiyat taraqqiyotiga siyosiy o'zgarishlarning ta'siri.

Tayanch tushunchalar: Huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar, jamiyat taraqqiyoti, siyosiy o'zgarishlar.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq sohasidagi islohotlarning maqsadlariga erishishyo'lida keng ko'lamli va tizimli ishlar amalga oshirildi. Sud-huquq tizimini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan mustaqil bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshirildi. Mazkur islohotlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish, odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Sud-huquq tizimi zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqildi va qayta tuzildi, qulay normativ-huquqiy baza yaratildi. Ushbu baza islohotlarni aholining xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda bosqichmabosqich amalga oshirish imkonini berdi. Islohotlarning yo'nalishlaridan biri, bu, adliya organlarining faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish va sudyalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishdan iborat. Sudlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, sudyalarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlashda muhim kafolatlaridan biriga aylandi.

Yangi konstitutsiyaviy qoidalarga yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi, sukut saqlash huquqi va **Miranda huquqlari** kiritildi. Mazkur konstitutsiyaviy talablar hech kim o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligini va shaxsning o'z aybiga iqrorligi yagona dalil bo'lgan holatda, u aybdor deb topilmasligini bildiradi.

Islohotlar doirasida zamonaviy sud binolari barpo etildi. Sudlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, ularning faoliyatiga ilg'or axborotkommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi. Aholining interaktiv sud xizmatlaridan foydalanishini osonlashtirish maqsadida, sud binolariga maxsus terminallar o'rnatildi. Endilikda fuqarolar ushbu xizmatlardan mustaqil ravishda sud binosida ham, masofadan turib ham foydalanishi mumkin. Sud binolarining qabulxonalariga Wi-Fi tarmoqlari o'rnatilib, xizmatlarni qo'llab-quvvatlash uchun internetdan bepul foydalanish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, barcha sud binolari sud jarayonlarini hujjatlashtirish uchun videokonferensaloqa tizimi va audioyozuv qurilmalari bilan jihozlandi.

«E-SUD» tizimi ariza beruvchilarga respublika sudlariga arizalar bilan murojaat qilish hamda manfaatdor shaxslarni arizalar bo'yicha amalga oshirilgan protsessual harakatlar va ularning natijalari haqida xabardor qiladi. Shuningdek, mazkur tizim fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlarini birinchi, apellyatsiya va kassatsiya sudlarida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarga Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish huquqini beruvchi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi sud-huquq sohasidagi islohotlar yo'lidagi yana bir muhim qadam bo'ldi. Bu, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni buzuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lgan qonunlarga e'tiroz bildirishga imkon beradi. Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish imkoniyati odil sudlovga erishishning muhim kafolati bo'lib, amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini sud faoliyati haqida xabardor qilish maqsadida, muntazam ravishda brifinglar, matbuot anjumanlari, uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Ushbu tashabbuslar jamoatchilik va ommaviy axborot vositalariga sud tizimining ishini tushunish, savollar bilan murojaat qilish va o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkonini beradi. Bu kabi ochiq muloqotlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muhim jihati hisoblanadi.

Islohotlar doirasida, shuningdek, sud ishlarini yuritishning soddalashtirilgan tartiblari, dastlabki eshituv, mediatsiya, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv, yarashuv ishlari bo'yicha ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish kabi yangi huquqiy mexanizmlar ham joriy etildi. Fuqarolar va yuridik shaxslarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash maqsadida, ma'muriy sudlar tashkil etildi.

Sudlar tomonidan ko'rilgan va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari haqiqiy emas deb topilgan ishlar.

O'zbekistonda advokatlik sohasini isloh qilish, advokatlar maqomini mustahkamlash, ularga qo'shimcha kafolatlar berish, shu orqali ularning nufuzini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar ichida advokatlik faoliyatiga bag'ishlangan alohida bob ham mavjud. Yangi konstitutsiyaviy qoida bilan advokatlik faoliyatiga haqiqiy konstitutsiyaviy maqom berish orqali bir qator kafolatlar kiritildi.

Investorlarning huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida, Oliy sudga investitsiya nizolari va raqobat qonunchiligiga oid ishlarni ko'rish uchun maxsus sud hay'ati tashkil etildi.

Islohotlar samarasi oqlov hukmlarining sezilarli darajada oshganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2007–2015 yillarda sudlar tomonidan atigi 110 nafar shaxs oqlangan bo'lsa, 2016–2023 yillarda bu raqam 6008 nafarga yetdi. Birgina 2023 yilda oqlov hukmlari soni 1244 tani tashkil etib, bu 2017 yilga nisbatan 5 barobar ko'pdir. Oqlov hukmlarining sezilarli darajada oshgani

mazkur islohotlar natijasida adolatli va haqqoniy sud tizimi barpo etilganidan dalolatdir. Shuningdek, 2021 yildan 2023 yilgacha 43 637 nafar shaxsga nisbatan 41 081 ta jinoyat ishi yarashuv asosida tugatilgan, 22 670 nafar shaxsga nisbatan 16 517 ta jinoyat ishi bo'yicha yetkazilgan zarar undirilib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan.

2016 yildan buyon O'zbekiston (World Justice Projectning) "Qonun ustuvorligi" indeksida o'z o'rnini 15 pog'onaga yaxshilab, so'nggi besh yil ichida dunyoning 142 ta davlati orasida eng yaxshi natijaga erishdi.

Inson huquqlari institutlari. 2016 yildan buyon O'zbekiston (World Justice Projectning) "Qonun ustuvorligi" indeksida o'z o'rnini 15 pog'onaga yaxshilab, so'nggi besh yil ichida dunyoning 142 ta davlati orasida eng yaxshi natijaga erishdi. Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) jazoni ijro etish muassasalari faoliyati monitoringini yuritadi. Jazoni ijro etish muassasalaridan tushgan shikoyatlar jazoni ijro etish organlari tomonidan ko'rib chiqilmagan holda, bevosita Ombudsmanga yuboriladi. Birgina 2023 yilning o'zida Ombudsman qamoqda saqlash joylariga 483 ta monitoring tashrifini amalga oshirdi. Shuningdek, Bolalar ombudsmeni, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Biznesombudsman jazoni ijro etish muassasalarini monitoring qilish vakolatiga ega. Jazoni ijro etish muassasalarida 4330 ta videokuzatuv kameralari o'rnatilgan bo'lib, xodimlar bodi kameralarini taqib yurishi shart. Huquqni muhofaza qilish va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun muntazam ravishda majburiy kurslar tashkil etilmoqda. Birgina 2023 yilning o'zida huquqni muhofaza qilish va jazoni ijro etish muassasalarining 500 nafar xodimi ana shunday kurslarda ishtirok etdi.

2022 yilda Fuqarolik kodeksiga qiynoqlardan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritildi. Inson huquqlari buzilishi holatlari monitoringini yuritish va aniqlash bilan shug'ullanadigan 839 ta NNT mavjud bo'lib, ular ayni vaqtda Hukumatning inson huquqlari bo'yicha o'z majburiyatlariga rioya qilishini kuzatib boradi.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamini kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

1. O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "*O'zbekiston – suveren demokratik respublika*" jumlasini quyidagicha o'zgartirilmoqda:

O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. (*Konstitutsiya normalariga rasmiy sharhlar hozircha yo'q, shu sababli undagi norma va tushunchalarga tahririyat umumqabul qilingan doirada, mustaqil izoh berib o'tmoqda*).

Suveren davlat – o'z hududida to'la-to'kis mustaqil hukmronlik

va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo'lish demakdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o'z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta'minlanishini ko'zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini **ijtimoiy davlat** deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy e'tiqodidan qat'i nazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarini qayta ko'rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat'i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o'zgararmoqda:

Eski: *Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.*

Yangi: *Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.*

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko'p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o'tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o'zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo'shildi:

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

Huquqlar cheklanishiga doir bu me'yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so'z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta’kidlash lozim, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo‘yicha inson huquqlari “jamoat tartibini ta’minlash maqsadida” cheklanishi bo‘yicha vakolatli organing huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta’minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o‘rtasidagi oltin o‘rtalik aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin

O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Bosh qomusning o‘tgan yili e’lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: “*Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi*”. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko‘rinish oldi:

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun

shart-sharoitlar yaratadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: *“Xususiy lashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi”* degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o'tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo'q.

8. OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Avvalgi konstitutsiyaning *“Ommaviy axborot vositalari”* nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: *“Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi”*.

Yangi konstitutsiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og'izda va qog'ozda qolib ketmoqda.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak.

9. Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi

O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning *“davlat boshlig'i”* maqomi saqlab qolindi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar ham o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Bosh vazir nomzodini endi g'olib partiya emas, prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko'pi ma'qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Eslatib o'tamiz, avvalgi tartibga ko'ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni

egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi. Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqib ma'qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo'yicha prezident bilan maslahatlashuv o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi

Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi. Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvi o'tkazishi mumkinligi yozib qo'yildi.

Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Konstitutsiyaga qo'shilgan bu norma bo'yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlari chiqargan qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi odil sudlovni ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu

kabi mavxum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo'ldi.

Referendumda qabul qilingan qonunning 7-moddasi bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat'i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha;

tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

mahalliy budjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish.

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo'ladi:

konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Shu o'rinda yangilangan Konstitutsiyada belgilangan asosiy o'zgarishlar haqida qisqacha ma'lumot berish ehtiyoji tug'iladi. Xalqimiz takliflari asosida Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. YA'ni Asosiy Qonunimizning 65 foiz matni jamoatchilik takliflari asosida yangilandi. Agar yo'nalishlar kesimida qaraydigan bo'lsak, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3 baravar ko'paydi. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari esa 3,5 baravardan ko'proqqa, oilaga bag'ishlangani esa 2 baravar ortganligini ko'rishimiz mumkin.

3 ta yangi bob (amaldagi Oila bobiga qo'shimcha bolalar va yoshlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobiga qo'shimcha madaniy va ekologik huquqlar, alohida advokatura bobi) qo'shildi.

Konstitutsiyaning 15 ta normasida davlat shart-sharoitlar yaratishi, 16 ta normasida davlat kafolatlashi, 4 ta normada davlat qayg'urishi alohida ko'rsatib o'tilayotganligining o'ziyiq davlatning maqsadi inson huquqlarini ta'minlash ekanligini ko'rsatib turibdi.

Konstitutsiyada "inson" so'zi amaldagi Konstitutsiyaga nisbatan 3 baravar ko'p, "bolalar" so'zi qariyb 3 baravar ko'p, "yoshlar" so'zi 6 baravar ortiq, "ayollar, xotin-qizlar" so'zlari 2 baravar ko'p, "nogironligi bor shaxs", "aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari", "intellektual mulk", "inklyuziv ta'lim" degan so'zlar esa birinchi marta qo'llanildi.

Yangilangan Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri ilm-fanni, ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berilgani bilan izohlanadi. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb ikki baravar ko'paydi.

"Ta'lim" degan so'zning o'zi 20 marta qo'llanilyapti, avvalgi Konstitutsiyamizda faqat 2 martagina ishlatilgan edi holos. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlandi.

Xulosa qilib aytganda, kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning siyosiy-huquqiy ahamiyati, ko'lami va hajmidan kelib chiqib, ushbu Konstitutsiyani Yangi tahrirdagi Konstitutsiya deb aytilish uchun barcha asoslar yetarli.

Nazorat savollari:

1. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligining asosiy tamoyillari?
2. Konstitutsiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyoti uchun qanday o'zgarishlarni taqdim etadi?
3. "Inson huquqlari" masalalariga oid shaxsiy qarashlaringizni bayon qiling.

2-Amaliy. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi sifatida (2 soat)

Reja:

1. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ekologik barqarorlikga erishish strategiyasining mazmuni.
2. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘tish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘tish suratlari.
3. Iqtisodiy o‘tish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiiq etish istiqbollari.

Tayanch tushunchalar: Ekologiya, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, “yashil iqtisodiyot”, iqlim o‘zgarishlar, iqlim muhojirlari.

Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Atrof muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Natijada 2019 yil 30 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863 son Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi” qabul qilindi.** Konsepsiya ko‘rsatib o‘tilgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlarini yo‘lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta’minlash imkonini beradi.

*Konsepsiyaning asosiy **maqsad** va vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi.*

O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta’minlash;

atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta’sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

atrof muhit ob’ektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta’minlash.

Konsepsiyaning **vazifalari** sifatida esa quyidagilar belgilandi:

atrof muhit ob’ektlarini (er, suv, atmosfera havosi, yer qa’ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta’minlash;

qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy

mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish ob‘ektlari va boshqa ob‘ektlardan ustuvor darajada foydalanish;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta‘minlash;

ekologik xavfsizlikni e‘tiborga olgan holda, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta‘minlash;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

atrof muhitga minimal og‘irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi jamiyatni shakllantirish;

atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

O‘zbekistonning “yashil kun tartibi”

Ko‘p yillardan beri O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga zaif mamlakat bo‘lib, deyarli barcha xalqaro va mintaqaviy maydonlarda Orol dengizining qurishi, yerlarning cho‘llanishi va degradatsiyasi, haroratning o‘zgarishi, tabiiy ofatlar holatlarining ko‘payishi bilan bog‘liq muammolarga e‘tibor qaratmoqda.

Ushbu qiyinchiliklarga javoban iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish O‘zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Mamlakat ko‘p bosqichli kompleks yondashuvlarni qo‘llash orqali global isish ta‘sirini minimallashtirish uchun faol harakat qilmoqda.

Ushbu muammolarning jiddiyligini hisobga olgan holda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida alohida bob nazarda tutilgan. Xususan, 49-moddada har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Davlat barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirish majburiyatini oladi. Konstitutsiyada Orol inqirozi oqibatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Davlat ekologik tizimni muhofaza qilish va tiklash bo‘yicha faol chora-tadbirlar ko‘rmoqda, shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashmoqda. Bu ekotizimlarni tiklash, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalarning barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha maqsadli sa‘y-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda respublikada ekologik muammolarni hal etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2017 yilda O‘zbekiston Parij kelishuvi ishtirokchisiga aylandi. Uni amalga oshirish uchun 2019 yilda 2019 – 2030 yillarga mo‘ljallangan «yashil» iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategiya ishlab chiqilib, uning asosiy maqsadlaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hisoblanadi.

Ayni paytda O‘zbekistonda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida 30 dan ortiq qonun hujjatlari va 200 ga yaqin qonunosti hujjatlari amal qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “Er qa‘ri to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”, “Ekologik audit to‘g‘risida”, “Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida”gi qonunlari mavjud. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadida 2018 yilda “O‘rmon to‘g‘risida” va 2019 yilda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari qabul qilindi, shuningdek, mazkur qonunlar asosida bir qator qarorlar va idoraviy me‘yoriy hujjatlar – qonunlar normalarini belgilovchi va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishiga xizmat qiluvchi qoidalar, nizomlar, ko‘rsatmalar qabul qilindi.

2019 yilda birinchi marta 2030 yilgacha atrof-muhitning milliy konsepsiyasi qabul qilindi, bu dasturiy hujjat bo‘lib, mamlakatning o‘rta muddatli istiqbolda ekologik siyosatining rivojlanishini belgilaydi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Ekologik kodeksi loyihasi tayyorlanmoqda.

Mamlakatning xalqaro ekologik konvensiyalarda ishtirok etish jarayoni kengaymoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston 2019 yilda barqaror organik ifloslantiruvchi moddalar to‘g‘risidagi Stokgolm konvensiyasining, Biologik xilmaxillik to‘g‘risidagi konvensiyaga bioxavfsizlik bo‘yicha Kartagena protokolining ishtirokchisi bo‘ldi.

Milliy sa‘y-harakatlardan tashqari, O‘zbekiston iqlim bo‘yicha muhim tashabbuslarni faol ilgari surishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu tashabbuslar nafaqat mintaqa doirasida, balki xalqaro miqyosdagi hamkorlikni mustahkamlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda sa‘y-harakatlarni birlashtirishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Davlat rahbarlarining 3-maslahat uchrashuvida O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va uchrashuvning barcha ishtirokchilari tomonidan ijobiy qabul qilingan Markaziy Osiyo uchun “Mintaqaviy yashil kun tartibi” dasturi alohida e‘tiborga loyiqdir. Davlat rahbarlarining 4-maslahat uchrashuvida ushbu dasturning besh mamlakat rahbarlari tomonidan qabul qilinishi muhim voqea bo‘ldi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining 5-yig‘ilishida iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari bo‘yicha mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish bo‘yicha e‘lon qilingan O‘zbekiston tashabbusi Markaziy Osiyo uchun yagona iqlim kun tartibini shakllantirishning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Bundan tashqari, davlat rahbari Markaziy Osiyo davlatlari va Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (GCC) sammitida yashil energiya segmentida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish muhimligini ta‘kidladi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va raqamlashtirish maqsadida “Bir makon, bir yo‘l” forumida davlat rahbari “Yashil rivojlanish” dasturini ishlab chiqish va kam

uglerodli iqtisodiyot va toza texnologiyalarni shakllantirish uchun Yashil moliyalashtirish jamg'armasini yaratishni taklif qildi.

Shu nuqtai nazardan, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP 28) yana bir platformaga aylandi, u yerda Prezident Shavkat Mirziyoev yana bir bor jahon hamjamiyatiga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda insoniyatning harakat va jamoaviy mas'uliyatini talab qildi. Shunday qilib, global isish muammolarini doimiy ravishda, shu jumladan G7 va G20 sammitlari doirasida ko'rib chiqish taklif qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekistonda 2024 yilda ikkita yirik xalqaro tadbir o'tkazish taklifini bildirdi.

Birinchisi, BMT bilan birgalikda "Iqlim migratsiyasi" mavzusida konferensiya o'tkazish. Bu, ayniqsa, noqulay iqlim sharoiti butun sayyora bo'ylab odamlarni harakatga keltirishi, resurslarning yetishmasligi, ish o'rinlari uchun raqobatning kuchayishi va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin bo'lgan kontekstda juda muhim hisoblanadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilga kelib sayyoramizning 6 mintaqasida 216 million kishi "iqlim qochoqlari"ga aylanishi mumkin.

Ikkinchisi, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish va ularning ekologik tadbirlarda ishtirokini kengaytirishga bag'ishlangan iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlar konferensiyasini tashkil etish. Bu qadam BMTning "Yoshlar – 2030" strategiyasiga muvofiq bo'lib, u ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha siyosat va qarorlar qabul qilish jarayonlarida yoshlarning mazmunli ishtirokini ta'minlashga ustuvor ahamiyat beradi.

O'zbekiston **BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida** Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'sis etishni qo'llab-quvvatlagani bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan BMT minbaridan turib ushbu tashabbusning qo'llab-quvvatlanishi suv resurslarini boshqarish sohasida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu uzoq muddatda Markaziy Osiyoda yanada barqaror rivojlanish va ekotizimlarni himoya qilishga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning iqlim masalalari bo'yicha kun tartibidagi sa'y-harakatlarini inobatga olgan holda, mamlakatimiz xalqaro munosabatlar sub'ekti sifatida global muammolarni hal etishda mas'uliyatni bo'lishishga tayyor ekanidan dalolat beradi. **"Iqlim o'zgarishining inson huquqlariga ta'siri"** forumi iqlim o'zgarishining inson huquqlariga kelajakdagi ta'sirini oldini olish bo'yicha ishchi strategiyalarni har tomonlama muhokama qilish va uzoq muddatli samarali yechimlarni ishlab chiqish uchun ko'p tomonlama platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015 yili Parij Bitimi qabul qilindi. Yangi kelishuvning asosiy qirralaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo'yildi.

Kelishuvning asosiy maqsadi issiqxona gazlari tashlanmalarini sezilarni darajada kamaytirib, sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi

o'rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5-2 gradus chegarasida ushlab turishga erishishdan iborat. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan yilga ko'proq keskin iqlim o'zgarishlariga duchor bo'ladi.

2017 yil 19 aprelida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij Bitimini imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi Hadli Konvensiyasi kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to'g'risida hujjat taqdim etildi.

Mazkur bitim 2018 yili 3 oktyabrda ratifikatsiya qilindi. 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni – 2030 yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010 yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 10 foizga qisqartirishni rejalashtirgan edi. 2021 yil noyabr oyida Glazgo shahrida o'tkazilgan BMT Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi Hadli Konvensiyasining 26-yig'ilishida milliy delegatsiyamiz tomonidan bu ko'rsatkichni 35 foizgacha belgilanganligi ma'lum qilindi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ikkinchi taklif sifatida global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo'lishi zarurligi ta'kidlandi. Bu borada ham mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot", "yashil" energetika, "aqlli" qishloq xo'jaligi tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilayotganini alohida qayd etish lozim.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning "Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"¹.

Hozirgi kunga kelib dunyo aholisining 18%ini yoshlar tashkil etmoqda. Bu nisbiy ko'rsatkich albatta. Ma'lumki, bugungi kunda jahon mamlakatlarida «yoshlar» tushunchasi turlicha tasnif qilinadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida aholining 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan vakillariga yoshlar sifatida qaraladi. YuNESKO esa 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarni yoshlar sirasiga kiritadi. Aksariyat MDH davlatlarida esa (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham) 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi.

Hozirgi davrdagi BMT tomonidan yoshlar ijtimoiy qatlamiga bo'lgan munosabatning yangicha prinsiplarini belgilab berilgan qator hujjatlar qabul qilinishi bilan uzviy bog'liqdir. 1965 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik g'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni targ'ib etish to'g'risidagi Deklaratsiya"si e'lon qilinishi bilan yoshlarning ijtimoiy muammolari tashkilot e'tibor markazidagi vazifaga aylandi. YuNESKO yo'nalishida yoshlar muammolariga daxldor yuzdan ortiq hujjatlar qabul qilindi. Aynan YuNESKO tashabbusi bilan 1985 yildan Yoshlar masalalari butunjahon kongressi faoliyat ko'rsata boshladi va shu yil **BMT tomonidan "Xalqaro Yoshlar yili" deb e'lon qilindi.**

2019 yil 19 mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarimizga bo'lgan

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2022. – Б 250

e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilib, ushbu yo'nalishlarda aholi va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Ular quydagilar:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

2016 yil 14 sentyabrda yangi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib (*mazkur qonun asosida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni bekor qilindi*), u 4 ta bob, 33 ta moddada mujassamlashdi. U oldingi qonundan fuqarolik jamiyati talablariga javlb berishi, yoshlarni ijtimoiy himoyalashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Qonunda ishlatilgan tushunchalarga quyidagi ta'riflar berildi:

yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

yoshlar (yosh fuqarolar) – 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan 30 yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan 30 yoshdan oshmagan xodim;

yoshlar tadbirkorligi – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'rischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'ymoqda.

Markaziy Osiyo dunyodagi eng yosh mintaq bo'lib, aholisining o'rtacha yoshi

27,6 yoshni tashkil etadi. Mintaqa aholisining 50 foizga yaqini O'zbekiston Respublikasiga to'g'ri keladi.

3-Amaliy. Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash.

Reja:

1. Inson kapitalini yuksaltirish zarurati.
2. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash siyosati.
3. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli.

Tayanch tushunchalar:

Amerikalik ikki iqtisodchi olim - Teodor Shuls (1979) va Geri Bekker (1992) inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bu olimlarning inson kapitali tushunchasiga bergan ta'rifini ham qisqacha ushbu satrlarda umumlashtirish mumkin: "Inson kapitali – shaxsning o'zi va umuman, jamiyatning ko'p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari yig'indisidir". Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta'rifi vaqt o'tishi bilan insoniyat turmushida yuzaga kelgan o'zgarishlar tufayli yil sayin kengayib va mukammallashib bormoqda. ***Bugungi kunda inson kapitali haqidagi nazariya iqtisod fanining mustaqil tarmog'iga – bilim iqtisodi yo'nalishiga aylandi.***

Mazkur fandagi inson kapitali xususidagi eng mukammal va tadqiqotchilar tarafidan tan olingan ta'riflardan biri quyidagichadir: "Inson kapitali iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to'xtovsiz rivojlanuvchi va murakkab faktori bo'lib, u o'zida inson faktorining ishlab chiqarish faktori sifatida samarali va oqilona amalda bo'lishini ta'minlovchi mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy va jismoniy mehnat unsurlarini, yashash shart-sharoitlarini, intellektual faoliyatni jamlaydi... Qisqachasi, inson kapitali – bu professionalizm, intellekt, bilimlar, sifatli, yuksak samarali mehnat va yuksak turmush darajasi demakdir"

Inson kapitalining quyidagi turlari shakllangan:

Ijobiy (aktiv) inson kapitali – o'zi uchun sarflangan investitsiyani to'la o'zlashtirgan va uni jamiyatning rivojlanishi va takomillashuvi shaklida ro'yobga chiqargan kreativ (yaratuvchi) va innovatsion kapitaldir. Bu yaratuvchanlik va takomillashuv, jumladan, aholining turmush darajasining oshishi, innovatsion salohiyatning yuksalishi, ta'lim tizimining rivoji, ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta'minoti erkinligi, aholi salomatligining yaxshilanishi kabilarda namoyon bo'ladi. Chunki, inson kapitalining o'lchamlari va sifati aholi / shaxsning mentaliteti, ta'lim darajasi, hayotiy tasavvurlari va sog'liqni saqlash sohasidagi ahvol kabilari bilan o'lchanadi. Aytish lozimki, ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash kabilarga sarflangan investitsiyalar tarixan qisqa muddat ichida samara berishi mumkin, ammo asrlar davomida shakllangan mentalitetni qisqa vaqtda o'zgartirish qiyin. Shu sababli dunyodagi ilg'or tajriba va bilimlarni milliy / shaxs mentalitetining ijobiy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish muhimdir. O'zbekistonda rivojlangan G'arb va Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi

tajribasi o'zlashtirilgan ekan, ayni shu nuqtalarga jiddiy e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir, ya'ni ilg'or chet el tajribasining xalqimizning milliy mentalitetiga va ko'p asrlik an'analarga mos keladigan shakllari olinmoqda yoki ular mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirilmoqda. Shuningdek, milliy madaniyatimiz, an'alarimiz va yoshlarimizni chet ellardagi ba'zi oqim va harakatlarning zararli ta'siridan saqlash uchun olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va profilaktik choralar aynan shu maqsadni ko'zlagandir. Inson kapitali ham ayni konkret shaxs kabi ma'lum bir sivilizatsiya, mentalitet va an'alarining mahsulidir.

Salbiy (passiv) inson kapitali. Inson kapitalining bu turi mamlakat taraqqiyotiga va innovatsion iqtisodiyotga aytarliq hissa qo'shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste'molchisi bo'lishdan iboratdir. Passiv inson kapitalini yaxshi ta'lim olmagan, oddiy kustar (qo'l mehnatiga asoslangan) sanoatda, tovar ayirboshlashga asoslangan tijoratda yoki mexanizatsiyalashmagan qishloq xo'jaligida band kishilar tashkil etadi deyish mumkin. O'zbekcha ta'bir bilan aytganda, «qora mehnat» qiluvchilar, ya'ni malaka talab qilmaydigan ishlarda ishlaydigan kishilar passiv inson kapitalini tashkil etadilar.

4. Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchinchi turi *Manfiy inson kapitali*dir. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma'lum bo'lganidek, o'ziga sarflangan investitsiyalardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, o'zi yashaydigan jamiyat iqtisodiyotining rivojiga, na turmush darajasining yuksalishiga, na shaxs sifatida o'zining rivojlanishiga hissa qo'shishga yaramagan toifa tushuniladi. O'zbekcha ifoda bilan aytganda, «na o'ziga, na boshqaga foydasi tegmaydigan» toifa manfiy inson kapitalini tashkil etadi. Ashaddiy jinoyatchilar, giyohvandlar, korrupsionerlar, ishyoqmaslar, ichkilikbozlar, tekinox'rlilik bilan kun kechiruvchilar – bir so'z bilan aytganda, jamiyat va oilasining sarflagan moddiy investitsiyasi, bergan ta'lim-tarbiyasining samarasini yo'qqa chiqargan kishilar manfiy inson kapitali sifatida namoyon bo'ladilar. Ana shu toifadagi inson kapitali misolida ba'zi toifadagi kishilar uchun sarflangan investitsiyalar hamisha ham o'zining ijobiy samarasini beravermasligi ko'rinadi. Manfiy inson kapitali ko'pincha xalqning mentalitetidagi yetishmovchiliklar, aholi madaniyat saviyasining pastligi, jamiyatdagi sotsial muammolar, shuningdek, kishilarning tabiiy haqqi bo'lgan hurriyat va erkinliklarning cheklanishi kabi sabablar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, o'tish davridagi mamlakatlarda o'sishning 64 foizi inson kapitali sifati, ya'ni aholi tomonidan ishlab chiqarish jarayoni va kundalik hayotda samarali yechimlarni topish uchun to'plangan bilim va ko'nikmalarga bog'liq.

Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlarda inson kapitalining ulushi milliy boylikning 80 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiy farovonlik esa yangi bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq qilishga bog'liq. Ta'limning bunday muhim o'rin kasb etishi davlatning ushbu sohaga doimiy e'tibori va undagi ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birga, hech bir davlat, xatto eng rivojlangan va ilg'or davlat ham bu sohaning barcha vazifalarini o'z zimmasida saqlay olmasligi tobora oydinlashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 noyabrdagi "2022-2023 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishida davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish, faoliyatini natijadorlikka qaratish va "mobil boshqaruv apparati"ni yaratish, xorijiy tajribani tahlil qilish zarurati, xorijiy mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va aniqlash kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu ta'lim tizimini boshqarishning eng samarali modelini izlashga turtki bo'ldi.

Ta'lim tizimida samarali modelni izlash uchun AQSh, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Latviya va Turkiya kabi davlatlar tajribasi o'rganib chiqildi.

Quyida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba va O'zbekiston Respublikasida mobil boshqaruv apparatini shakllantirish, ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan zamonaviy ta'lim dasturlarini o'rganish natijalarini taqdim etamiz.

Ta'lim sohasida davlat boshqaruviga ko'ra:

dunyoning aksariyat yetakchi mamlakatlarida (AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya) deyarli butun soha (maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim) yagona ta'lim vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va boshqariladi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya va Turkiya oliy ta'lim sohasida ta'lim vazirligi faqat o'quv-reja va imtihon qoidalarini belgilaydi, boshqaruv sohasidagi boshqa masalalar bilan oliy ta'lim muassasalari rahbarlaridan tuzilgan Oliy ta'lim Kengashi shug'ullanadi;

vazirlik ta'lim bilan bir qatorda boshqa sohalarni ham qamrab oladigan amaliyotlar mavjud bo'lib, bu borada Yaponiya amaliyoti alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki vazirlik ta'lim bilan bir qatorda madaniyat, sport, fan va innovatsiya sohasini (Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi), Fransiya ta'lim bilan bir qatorda yoshlar va sport siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari (Milliy ta'lim, yoshlar va sport vazirligi), Qozog'iston va Latviya – fan va innovatsiyalar (Ta'lim va ilm-fan vazirligi) sohasini ham qamrab oladi. Boshqa mamlakatlarda fan va innovatsiya bilan boshqa bo'limlar shug'ullanadi. Masalan, AQShda – Fan, texnologiya va innovatsiyalar davlat departamenti, Janubiy Koreyada – Fan va axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Turkiyada – Sanoat va texnologiyalar vazirligi;

xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim turlari bo'yicha bir nechta vazirliklar tomonidan alohida ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solish amaliyoti mavjud emas. Bundan ta'lim vazirliklari negizida ikkita vazirlik, xususan, maktabgacha, umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi vazirligi hamda fan va innovatsiyalar bilan bir qatorda oliy ta'lim faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vazirlik tashkil etgan Fransiya, Italiya (2021 yildan) va Rossiya (2018 yildan) kabi davlatlar mustasno. Universitetlar faoliyatida ilmiy hay'atning roli oshishi, o'z

navbatida, fan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish uchun kadrlar tayyorlashdan tortib, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining faoliyati sifatini baholash mexanizmlarigacha bo'lgan sohada ularning ta'lim va fan o'rtasida hamkorlikning zarurligini belgilab berishdagi hissasini oshirish ushbu integratsiyaning sababi hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim dasturlariga ko'ra:

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari uzluksiz ta'lim tizimini (hayot davomida ta'lim) takomillashtirishga qaratilgan. Bu yashash davomiyligida faol davrning oshishi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi tufayli kasblarning o'zgarishi (qayta yo'naltirilishi) bilan bog'liq.

Ma'lumot uchun: Uzluksiz ta'lim (ingl. lifelong learning) bu – davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish orqali hamda shaxs va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda shaxsning ta'lim salohiyatini butun umr davomida oshirish jarayonidir.

Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim faqat malaka oshirish kurslarini anglatib qolmay, u turli shakllarda, masalan, kasb-hunar yoki oliy ta'limda ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu dasturlar kollej va universitetlarda, o'quv markazlarida yoki ish joyida o'tkazilishi mumkin. Uzluksiz ta'lim bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlash natijasida diplom yoki muvofiqlik sertifikatini beriladi.

O'z navbatida, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish ta'lim tizimining shaxs, jamiyat va iqtisodiyotning jadal o'zgaruvchan ehtiyojlariga nisbatan munosabatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari, ko'pchilik xalqaro mutaxassislar fikriga ko'ra, talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash mamlakatning innovatsion rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim insonning maktabda, kasb-hunar kollejida yoki universitetda o'qishi bilan yakunlanmay, balki uzluksiz, jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'ladi. Uzluksiz ta'limga misol tariqasida komp'yuter mutaxassisiga kasb-hunar kolleji yoki oliy o'quv yurtida komp'yuter dizayni yoki zamonaviy komp'yuter tillari bo'yicha kursda qatnashish, ta'limni tamomlagandan so'ng esa hujjat (sertifikat yoki diplom) olish imkoniyatlarini kiritish mumkin.

Ushbu dasturni amalga oshirish va aholini keng qamrab olish maqsadida 2021 yilda Janubiy Koreya ta'lim vazirligi tuzilmasida yoshi kattalar uchun uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linma (Uzluksiz ta'lim byurosi) tashkil etildi.

Singapurda ushbu tashabbusni SkillsFuture Singapore dasturi (Singapurning kelajakka moslashuvi) orqali amalga oshirishga qaror qilindi. Dastur yangi ko'nikmalarni joriy qilish, kelajakni yaratadigan insonlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan.

SkillsFuture tashabbusi 2015 yilda singapurlik aholiga uzluksiz ta'lim olish va ko'nikmalarini oshirishga imkon bergan holda, Singapur iqtisodiy rivojlanishining

keyingi bosqichini qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan. SkillsFuture singapurlik aholining kelib chiqishi va yoshidan qat'iy nazar, barcha imkoniyatlarini ko'rsatishi uchun mo'ljallangan. Dastur SkillsFuture Credit va SkillsFuture Earn and Learn kabi bir nechta asosiy tashabbuslarni o'z ichiga oladi.

SkillsFuture dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun Singapurda hukumat, sanoat, kasaba uyushmalari va ta'lim muassasalari vakillaridan iborat Bosh vazir o'rinbosari va moliya vaziri raisligida Kelajak iqtisodiyoti Kengashi (FEC) tuzildi.

Jamiyatda ro'y berayotgan jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimlari faoliyatining yangi parametrlarini belgilab, ayni paytda ular oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Boshqaruv jarayonini to'g'ridan-to'g'ri optimallashtirish, boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etish orqali ratsionalizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ta'lim sohasida davlat boshqaruvi bo'yicha, Fransiya, Italiya va Rossiyaning ta'lim, fan va innovatsiyalarning integratsiyalashuvi va muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha amaliyoti O'zbekiston sharoitida eng maqbul hisoblanadi, chunki ilmiy kadrlar tayyorlashda universitetlarning ulushi 77 foizni tashkil etadi, ilmiy-tadqiqot institutlari esa mutaxassislarining atigi 23 foizini tayyorlaydi;

- zamonaviy ta'lim dasturlariga ko'ra, uzluksiz ta'lim dasturini joriy etish inson kapitali darajasini oshirish va mehnat bozorida talab qilinadigan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali O'zbekistonga qo'shimcha investitsiyalar olib keladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yilda qabul qilingan (№A/RES/54/134) rezolyusiyasida har yili 25 noyabrni Xalqaro Xotin-Qizlarga nisbatan zo'rvonliklarga barham berish kuni (International Day for the Elimination of Violence against Women) sifatida nishonlanish ta'kidlanadi.

Xalqaro tadbir Dominikan Respublikasidagi inqilobiy harakat ishtirokchisi bo'lgan, 1960 yil 25 noyabrda tomonidan o'ldirilgan opa-singil Miraballar xotirasi sharafiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ta'sis etilgan. Opa-singil Miraballar (isp. Las Hermanas Mirabal) — Dominikanlik to'rt opa-singilardir. Ulardan uch nafari Inqilobiy harakatda ishtirok etganlari bois diktator Rafael Truxilo farmoyishiga ko'ra o'ldirilgan. Patriya, Minerva va Mariya-Teresa Mirabal Dominikan respublikasining milliy qahramonlariga aylanishgan. Ulardan faqat bitasi Dede Mirabal (Bélgica Adela «Dédé» Mirabal Reyes) tirik qoladi. U 2014 yilning 1 fevralida vafot etdi. Uch opa-singil (Mariya Teresa, Patria, Minerva) va Rufino de la Krus 1960 yilning 25 noyabrida qamoqdagi turmush o'rtoqlari bilan ko'rishishga o'tlanishadi. Uchrashuvdan qaytishar ekan, ularning xammasi pistirmaga duch keladilar. Maxfiy politsiya vakillari opa-singillarni o'lasini qilib kaltaklab, jasadlarini jarlikka tashlab ketishadi. Daxshatli qotillik aholining noroziliklariga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida Truxilo xukmronligiga qarshi kayfiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Diktator 1961 yilning

30 may kuni otib tashlanadi. Dominikan xalqi o'z qahramonlarini unutmad. Opa-singillar haqida kitoblar yozishdi, she'rlar va qo'shiqlar to'qishdi.

Ananaga binoan 25 noyabr kuni "Gender zo'ravonliklariga qarshi faol 16 kun" deb nomlangan kampaniyaga start beriladi. Bu kampaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10 dekabrda yakunlanadi. Bosh Assambleya rezolyusiyasida jaxon mamlakatlari hukumatlari, BMT tizimidagi tashkilotlar, xalqaro va noxukumat tashkilotlariga murojaat qilib, shu kuni xotin-qizlarga qarshi zo'ravonliklar bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi. Mazkur sana munosabati bilan har yili BMT Bosh kotibi murojaat bilan chiqib, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklar jaxon bo'ylab keng tarqalib borayotganiga alohida e'tibor qaratadi va bu muammoni yo'q qilish borasida birgalikda ishlashga chaqiradi. Taxlilchilarning fikricha, ayollar kundalik hayot va huquqiy soxalarda muntazam zo'ravonliklar bilan to'qnash keladi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonliklar rivojlanish yo'liga o'tgan mamlakatlarda ko'p uchraydi. Bir qator mamlakatlarda eri vafot etgan ayol ham o'ldirilishi uchrab turadi. Ayrim mamlakatlarda ayollar kislota sepish yo'li bilan o'ldiriladi. Oila sha'ni yo'lida ayollarni o'ldirayotgan mamlakatlar ham borligidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Kelin o'g'irlash odati saqlanib qolayotgan mamlakatlar ham bor. Odam savdosi qurbonlarining katta qismi ayollar xissasiga to'g'ri kelishi tan olinadi. Majburan turmushga berilayotgan qizlar haqida ham misollarni ko'plab keltirish mumkin. 21 asrda ham xamon chaqaloq qizlarni o'ldirish, ayollarni jismonan va ma'naviy ezish, erta nikohga uzatish, nomusiga tegish kabi zo'ravonliklar mavjudligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Oilaviy zo'ravonlik dunyodagi eng ko'p tarqalgan jinoyat sanaladi. Zo'ravonliklar bilan bog'liq jinoyatlarining 40 foiziga yaqini oilalarda sodir etilar ekan. Shu sababli oiladagi zo'ravonliklar zamonamizning jiddiy muammolaridan biri ekan tan olinadi. Bu kabi ko'rinish maishiy zo'ravonlik, oiladagi zo'ravonlik, gender zo'ravonligi deb ham ataladi.

Oilaviy zo'ravonliklarning 96 foizida ayollar va bolalar jabr ko'radi. Kuzatuvchilarning fikricha oiladagi zo'ravonliklar iqtisodiy taraqqiyoti qanday bo'lishidan qat'iy nazar, jaxondagi barcha mamlakatlarda uchraydi. Zo'ravonlik aholining barcha tabaqalari o'rtasida qayd qilinishi tan olinadi. Inson huquqlari bo'yicha Amnesty International xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili Rossiyada 14 mingga yaqin ayol o'z eri tomonidan o'ldirilgan ekan. Bu fikrni 2008 yilda Ichki ishlar vazirligining jamoat tartibini saqlash departamenti raxbari Mixail Artamoshkin xam tasdiqlagan edi.

Oilaviy zo'ravonliklar bilan bog'liq muammolarga o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab e'tibor qaratib kelinadi. O'shanda Yevropa va Amerikada xotin-qizlarni zo'ravonliklardan ximoya qilish maqsadida turli jamoat tashkilotlari tashkil etila boshlandi. Shu o'rinda Londonda 1971 yilda "Kaltaklangan xotinlar Harakati"

tuzilganini eslatib o'tamiz. Ular uchun maxsus ixtisoslashtirilgan markazlar paydo bo'ldi. So'nggi yillarda esa bir qator mamlakatlarda oilaviy zo'ravonliklar uchun mas'uliyatni belgilovchi qonunlar qabul qilindi. 2004 yilda Buyuk Britaniya, va Shveysariyada, 2008 yilda esa Sloveniyada oilaviy zo'ravonliklarga qarshi kurashga bag'ishlangan qonun qabul qilindi. Bugungi kunda 60 ta mamlakatda oilaviy zo'ravonliklarga bag'ishlangan qonun qabul qilingan. Bu borada Fransiya va Bolgariyaning tajribasiga ko'pchilik qiziqish bildiradi.

1995 yilda Xitoy poytaxti Pekinda Xotin-qizlar axvoliga bag'ishlangan IV Jaxon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Anjumanda qabul qilingan Pekin platformasida davlat idoralari ayollar axvoli yuzasidan muntazam monitoring olib borishi, oilaviy zo'ravonliklarga qarshi kurashayotgan tashkilotlar va davlat tuzilmalari o'zaro hamkorlik qilishi ta'kidlanadi.

Ayrim mamlakatlarda erlar tomonidan ayollarning kaltaklanishini xotin-qizlarning o'zlari qo'llab-quvvatlaydi. Bu kabi xolatlar musulmon mamlakatlarida kuzatiladi. Shuningdek, Meksikada xam ayollar ko'p xollarda erlari tomonidan kaltaklanishida o'zlarini aybdor sanashadi. Hindistonda xam aybdor ayollar kaltaklanishi kerak degan qarashlar mavjud ekan.

Dunyoda zo'ravonliklar tufayli xalok bo'lgan ayollarning 33-50 foizi erlarining kaltaklari tufayli vafot etadi. Bu o'z navbatida nozik jins vakillarini maishiy jinoyatlardan ximoya qilish davr talabi ekanligini ko'rsatib turibdi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayollarni zo'ravonliklardan ximoya qilish yo'lida xali ko'p ish qilinishi kerak bo'ladi. Londondagi gigiena va tropik tibbiyot maktabi xodimi Xaydi Stekl(Heidi Stoekl) va uning xamkasblari so'nggi 20 yilda jahoning turli mamlakatlarida oiladagi zo'ravonliklarni o'rganib, taxlil qildilar. Ular 169 mamlakatdagi xotin-qizlarning o'limi bilan bog'liq 500 mingta ishni o'rganib chiqishdi. Ma'lum bo'lishicha, yer yuzidagi xar yettitadan bitta qotillik oilada yuz berar ekan. Shundan 38 foizidan ko'prog'i erkakalar aybi bilan sodir etilar ekan. Ayollar atigi 6 foiz xollarda o'z turmush o'rtoqlarini o'ldirgani aytiladi. Eng qizig'i oilaviy zo'ravonliklar eng ko'pi G'arb va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlarda qayd qilinar ekan. Biroq, olimlar bu nisbiy ko'rsatkich ekanligini, aslida oilaviy zo'ravonliklar asosida yuz beradigan qotilliklar ancha ko'p ekanini aytishadi. Chunki statistikada o'lim nima asosida yuz bergani ko'p xollarda aytilmaydi. Zo'ravonliklar kattalar tomonidan amalga oshiriladi, ammo jafosini bolalar chekadi.

Tahlilchilarning fikricha, xotin-qizlar huquqi eng ko'p buziladigan mamlakat bu AQSh ekan. Bu mamlakatda bundan 10 yil avval, ya'ni 2005 yilda bir kunda o'rtacha uch nafar ayol o'z eri tomonidan o'ldirilgan. Har yili "okean orti" mamlakatida 232 ming 960 nafar ayol jismoniy zo'ravonlik bilan to'qnash keladi yoki ruxiy azob chekadi. AQSh Xotin-qizlar Milliy tashkiloti (NOW) Axborot portalidagi

ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi qashshoq oilalarda istiqomat qilayotgan 20 dan 24 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar oilaviy zo'ravonliklar bilan to'qnash keladi.

Nazorat savollari:

1. Inson kapitalining shakllanishiga nimalar ta'sir etadi?
2. Xotin-qizlarni taziyaqdan asrash borasidagi chora-tadbirlar nimalardan iborat?
3. Yoshlar masalasining dolzarbligi.

4-amaliy . Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Qatag'on qurbonlarini yod etish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash..

REJA:

1. Global jarayonlarda O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari.
2. Qatag'on tushunchasi va uning tarixiy-siyosiy mohiyati
3. XX asrda O'zbekistonda qatag'on siyosati va uning oqibatlari.

Tayanch tushunchalar: *Ma'naviyat, mafkura, ta'lim, tarbiya, ma'rifatli jamiyat, globallashuv, global axborotlashuv, axborot asri, mafkuraviy tahdidlar, milliy xususiyatlar.*

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch keldi. Ushbu muammolar va ularning yechimlariga doir masalalar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Avvalo, globallashuv hodisasining o'zi alohida mavzuga aylandi va bu haqda alohida **globalistika fani** shakllandi. Global jarayonlar va muammolarning paydo bo'lish tarixi, bugungi xususiyatlari va darajalari, milliy va umuminsoniy jihatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor ortib bormoqda².

"Globallashuv" tushunchasi (lot. Globus — shar, Yer sayyorasi ma'nosini anglatadi) XX asrning ikkinchi yarmi — XXI boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayondir. Ya'ni jamiyat hayotining barcha sohaları – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv

² Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Т., "Ўзбекистон". 2022. –Б 303.

jarayoni bilan bog‘lanmoqda.

“**Globallashuv**” atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983 yili “*Garvard biznes revyu*” jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan edi).

1985 yilda esa taniqli amerikalik olim R. Robertson “**Globalization**” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha “**odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi**”ni aks ettirib, “**dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining kuchayishini**” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

Globallashuv jarayonlari davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi bilan belgilanadi. Ya’ni, Islom Karimov ta’biri bilan aytganda “globallashuv — eng avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”³.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma’naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’siri **Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma Gandining quyidagi so‘zlarida yaxshi ifodalangan. “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman.”**

Globalizatsiyaning yana bir kuchli ob’ektiv asosi – bu **demografik** jarayonlarning shiddatlashib, dunyo aholisining soni quyidagi ko‘rinishda oshib bormoqda:

- 1700 yilda dunyoda 600 mln. odam (300 yil avval) bo‘lgan;
- XX asrning boshlarida 2 mlrd. kishini tashkil etdi;
- 2022 yilga kelib esa 8 mlrd. kishiga yetdi.

Globallashuv ayniqsa yuqori **Axborot** texnologiyalar sohasida faollashmoqda. Jumladan, AQSh rasmiy manbalarining ma’lumotlariga ko‘ra, «Internet»dan foydalanuvchilar soni 1994 yilda 3 mln. kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1998 yili 100 mln. kishiga yetdi. Birgina Rossiya Federatsiyasi bo‘yicha 2003 yilda Mobil telefondan foydalanuvchilar soni esa 2003 yil 10 mln kishini tashkil etdi.⁴

Ekspertlar xulosasiga ko‘ra, radio orqali **50 mln.** kishini qamrab olish uchun esa 13 yil kerak bo‘lgan.

³ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б 110.

⁴Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. //ФГЛУВПО “Поволжская академия государственной службы им. П.А. Столыпина”, 2005 г., с. 16.

Dezinformatsiya (fran, des – “salbiy” va information “axborot”) muayyan guruh va doiralarning g‘arazli maqsadlariga erishish yo‘lida soxta ma’lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg‘itish maqsadida matbuot, radio va TVda qo‘llanadigan usul, vosita. **Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida u tashviqotda keng qo‘llangan.**

Dezinformatsiya turlari:

- a) soxta axborot, ovoza va shov-shuvlar tarqatish
- b) konfidensial ma’lumotlar "oqib ketishi"ni tashkil qilish;
- v) muayyan faktlarni bo‘rttirib yoritish, ziddiyatli xabarlarini tarqatish.

Tahdidning yana bir manbai – **terrorchilar** va boshqa jinoyi guruhlarining harakatlaridir. So‘nggi yillarda sodir etilgan terrorchilik harakatlari bunday tahdidlarning tobora jiddiy tus olayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, tahdidlar ko‘pincha bir mamlakatning o‘zida paydo bo‘lmaydi, balki mazkur muammo transmilliy xarakterga ega. Ular jahondagi barcha davlatlar xavfsizligigi va mamlakatlardagi ijtimoiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi⁵.

Ilk bor Aristotel tomonidan qo‘llanilgan “Terror” atamasi yunoncha “terror” so‘zidan olingan bo‘lib, **dahshat, qo‘rquv** degan ma’nolarni anglatadi. Binobarin, terrorizm deganda o‘zining muayyan maqsadlariga erishishda siyosiy raqiblarini xarbiy xarakatlarga bog‘liq bo‘lmagan, hech bir cheklanmagan sistematik jismoniy zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan yo‘q qilishni ko‘zlovchi siyosiy kurash usuli tushuniladi. O‘z avantyuristik maqsadlariga erishishda jismoniy zo‘rlik, qurolli usullar, terror va fitnadan keng foydalanishi esa terrorizmning ekstremistik tabiatini yaqqol namoyish etadi.

Terrorizm tarixini shartli ravishda to‘rt davrga bo‘lish mumkin:

1. Qadimgi terrorizm. (Proterrorizm.)
2. Klassik (Mumtoz) terrorizm.
3. An’anaviy terrorizm.
4. Zamonaviy terrorizm.

Qadimgi terrorizm. Terrorizm uzoq tarixga ega xodisa bo‘lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi. Jamiyatning siyosiy tarixida siyosat sub’ektlari tomonidan maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biri sifatida zo‘rlik, dahshatga solishdan foydalanish o‘tmishda xam keng tarqalgan edi. Yozuv paydo bo‘lganidan boshlab bitilgan ko‘plab solnomalarga nazar tashlasak, siyosiy, ijtimoiy va xarbiy soxada terrorchilik harakatlari sodir etilganiga guvoh bo‘lamiz. Miloddan avvalgi 44 yilda Rim imperatori Gay Yuliy Sezarga uyushtirilgan suiqasdni **siyosiy terrorizmga** yorqin misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Umuman, siyosiy terrorizm tizimida yuqorida qayd etilgan xolatlar hozirgi zamon terrorizmiga nisbatan birmuncha ibtidoiy ko‘rinishga ega bo‘lgan xodisalar bo‘lganligi

⁵ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Т., “Ўзбекистон”. 2022. –Б 303.

uchun uni qadimgi terrorizm yoki proterrorizm deb ataladi.

Klassik terrorizm. Terrorizm tarixining ikkinchi davri klassik terrorizm bo'lib, unda "terror"ga siyosiy kurash vositasi sifatida qaraladi. Chunki, "terror" atamasi **Buyuk fransuz inqilobi davrida yuzaga** keldi. Fransiyadagi jirondistlar va yakobinchilar tomonidan 1790 yillarda siyosiy leksikonga kiritilgan "terror"dan xalqni qo'zg'olonga tayyorlash va hokimiyatni egallash jarayonida fransuz inqilobining mafkurachilari foydalangan edilar.

"Terror" atamasi Fransiyada yuzaga kelgan bo'lsa-da, terrorizm siyosiy voqelik sifatida XIX asrning birinchi yarmida Avstriyaga tobe bo'lgan, lekin mustaqillik ilinjida bo'lgan Italiyada muayyan darajada rivojlandi. Bu yerdagi **karbonariylar** (italyan tilida — "**ko'mirchilar**") italyan milliy inqilobi g'alabasi uchun politsiya mahkamalariga hujumlar uyushtirish, banklarni o'marish, pul olish yoki siyosiy yon berishlarga majbur qilish uchun odamlarni o'g'irlash bilan shug'ullandilar. Italyan ozodlik xarakatining doxiysi Garibaldi esa bu paytda Angliyada turib Avstriya-Vengriya imperiyasiga qarshi terroristik Aklarni moliyaviy ta'minlash maqsadida mablag' to'pladi. Oxir-oqibat Italiya Avstriya imperiyasidan ajralib chiqqach, bu jarayon nixoyasiga yetdi. Keyinroq esa muntazam ravishda terroristik Aklarni sodir etuvchi tashkilotlar vujudga keldi.

An'anaviy terrorizm. An'anaviy terrorizm klassik terrorizm zamirida shakllangan bosqich bo'lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) terroristik aklarni amalga oshirishning muayyan usullari va vositalari yaratildi. Bularga portlatish, qotillik, o't qo'yish, zaxarlash, garovga olish kabi usullar xamda bomba, pichoq, xanjar, pistolet, miltiq, turli zaxarlar va porox kabi vositalar kiradi;

2) terrorizm o'z mafkurasini yaratdi, natijada terrorizmning turli ko'rinishlari paydo bo'ldi (so'l va o'ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik, dunyoqarash, inqilobiy va boshqalar);

3) terrorizmning ijtimoiylashuvi ro'y berdi, ya'ni u axoliping turli qatlamlari orasida, marginallardan tortib to aristokratlargacha o'z ijtimoiy bazasiga ega bo'ldi;

4) terrorizm institutsionallashib, o'zining doimiy tashkilotlarini yaratdi va xalqaro xarakter kasb eta boshladi.

Zamonaviy terrorizm. Zamonaviy terrorizm terrorizm tarixidagi xozirgi bosqichdir. Uning asosiy xususiyatlari esa quyidagilardir:

1) terrorizm ommaviy xarakter kasb eta boshladi, ya'ni u tobora ko'proq qurbonlik talab qilib, qo'rquv va tahlika sola boshladi;

2) terroristlar odamlarni sarosimaga va dahshatga solishning zamonaviy usullari — gaz, bakteriologik vositalar, masofaviy va kosmik aloqa, internet va OAVdan foydalanishga o'tdilar. Garovga olinganlar xayotiga, Yerning sun'iy yo'ldoshlari va hatto yadroviy arsenallarga nisbatan ham real xavf paydo bo'ldi.

Terrorizm turlari. Murakkab ijtimoiy-siyosiy xodisa bo'lgan terrorizmni turlarga bo'lish siyosatshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb masala bo'lib, bunda terakt jarayonida

ishlatiladigan vositalarga asosiy mezon sifatida qaraladi. Shunga ko'ra terrorizm ikki turga: an'anaviy va zamonaviy texnologik (texnologik) terrorizmga ajratiladi.

Odamlarni xalok qiluvchi azaldan ma'lum vositalar (sovuq qurol, o'q otuvchi qurol, portlovchi moddalar va xokazolar)dan foydalanib siyosiy maqsadlar yo'lida amalga oshiriladigan terror an'anaviy terrorizmga xos xususiyatdir.

Zamonaviy (texnologik) terrorizm esa radioaktiv materiallar, o'ta zaxarli gazlar, kimyoviy va biologik moddalar kabi vayron qilishning yangi vositalarini qo'llashni afzal ko'radi, nisbatan katta xududni qamrab olishi va ko'plab axolining qurbon bo'lishiga olib kelishi jixatidan o'ta xavfli jinoyat turiga kiradi.

Zamonaviy (texnologik) terrorizmning ko'rinishlari.

Yadroviy terrorizm — yadroviy portlovchi qurilmalarni portlatish yoki portlatish taxdidi, radioaktiv materiallar bilan zaxarlash, yadroviy ob'ektlarni bosib olish yoki diversiya uyushtirishni ifoda etadi. Hozir dunyoning 30 mamlakatida 450 ga yaqin yadroviy sanoat ob'ektlari, yuzlab yadro reaktorlari, o'n minglab yadroviy qurilmalar mavjudligi e'tiborga olinsa, terrorizmning bu ko'rinishi insoniyatga nisbatan qanchalik katta taxdidga aylanganini tasavvur qilish mumkin.

Xaydjekinq — yirik transport vositalari: samolyot, poezd, avtomobil va kemalarni olib qochishda namoyon bo'ladi.

Skaydjekinq — xavo kemalariiii o'g'irlashni ko'zda tutadi. 2001 yil 11 sentyabrda AQSh xududida -mamlakat aviakompaniyalariga qarashli uch yirik samolyotning passajirlar bilan birga olib qochilganligi, amalga oshirilgan terakt natijasida ko'plab fuqarolarning xalok bo'lganligi katta fojia bo'lgan edi.

Kiberterrorizm — maxsus xaker dasturlari orqali kompyuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish, kompyuter viruslari yordamida internet tarmog'ida terakt sodir etish, internet tarmog'ini ishdan chiqarishni ko'zda tutadi.

Bioterrorizm — shtam, virus, kukun kabi bakteriologik vositalardan foydalangan holda terakt sodir etish.

Kimyoviy terrorizm — zarin, neprin kabi zaxarlovchi va bo'g'uvchi gazlardan terroristik maqsadlarda foydalanish.

Ekoterrorizm — terakt ob'ekta sifatida flora (o'simlik dunyosi) va fauna (hayvonot dunyosi) ning tanlanishi.

Infoterrorizm (axborot terrori) — terakt sodir etishga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotning OAV orqali tarqatilishi, iqtisodiy jixatdan rivojlangan mamlakatning o'z texnik imkoniyatlaridan boshqalarning zarari uchun foydalanishini anglatadi. Misol uchun biron bir yolg'on xabar ba'zan butun dunyo davlatlarini bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yadi, ming-millionlab odamlarning ruhiyatini zaharlaydi, ularni yo'ldan adashtiradi.

Masalan, AQShning har qanday qo'shin turida axborot urushini paydo qiladigan markaz mavjud. AQSh harbiy xavo kuchlarining "Axborot jangi" markazi Texas

shtatidagi XXXning Kelli degan bazasida, quruqlikdagisi esa Virjiniya shtatining Belvuar fortida joylashgan.

Millatchilik terrorizmi keng tarqalganligi, o'ta shafqatsizligi va ko'plab qurbonlarga olib kelishi bilan ajralib turadi. Mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, davlatchilikning ko'pincha federativ tuzilishini, mamlakatdagi mavjud milliy-davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilmalarni zo'rlik bilan o'zgartirishni o'zining siyosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Ispaniyada, Fransiya, Angliyada, Belgiyada va boshqa Yevropa mamlakatlarida millatchi ekstremistik tashkilotlarning bunday faolligini kuzatish mumkin.

Millatchilik terrorizmining turli-tuman ko'rinishlariga separatizm terrorizmini (millatchi siyosiy ozchilik tomonidan mustaqillik yoki avtonomiyaga erishish uchun amalga oshiriladigan teraktlar, ETA, korsikalik terroristlar.); milliy-ozodlik terrorizmini (mustamlaka va yarim mustamlaka mamlakatlarda davlat suverenitetiga erishish uchun terrordan foydalanish); repressiv-milliy terrorizmni (muayyan davlat ichidagi millatlararo nizolar jarayonida imtiyozli millat guruxlarining bir millatli davlat tashkil etish maqsadida milliy ozchilik talablarini terror yo'li bilan bostirishida, o'z navbatida milliy ozchilikning terrorga terror bilan javob berishida namoyon bo'ladi); xududiy-separtizm terrorizmini (oz tarqalgan xodisa bo'lib, bunda muayyan davlat ichidagi xukmron millat vakillari mamlakatning muayayn xududiga suverenitet berilishini talab qiladilar) kiritish mumkin.

Bundan tashqari dunyoqarash terrorizmi xam mavjud bo'lib, xukmron siyosiy me'yorlar va munosabatlar bilan murosa qilishni istamaslik undagi asosiy xususiyatdir. Diniy terrorizm shu ma'noda dunyoqarash terrorizmiga kiradi. Terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan so'nggi o'n yillikda kuchaygan taxdidi jamiyat va davlatni boshqarishning demokratik, dunyoviy shakllarini inkor etuvchi diniy terrorizm va ekstremizm moxiyatiga chuqurroq e'tibor berishni taqozo etmoqda.

Diniy terrorizm — xozirgi zamon terrorizmining keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bo'lib, u yoki bu diniy aqidalardan foydalangan xolda muayyan siyosiy maqsadlarni ko'zlaydi. Siyosat dunyosini o'z tamoyillari asosida qayta qurishni, odamlar ongiga ta'sir etishni diniy aqida va qadriyatlar negizida amalga oshirishni istovchi diniy-terroristik guruxlar xokimiyat uchun kurashish, millatlararo janjallar va xar xil siyosiy mojarolarni keltirib chiqarishda dindan siyosiy qurol sifatida foydalanishga xarakat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi (2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan. 6 bo'lim 31-moddadan iborat) qonunda **Terrorizm** — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning

suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 7 ta asosiy yo'nalishning beshinchisi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" masalasi bo'lib, bejizga ma'naviy ta'lim tarbiya masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmagan. Shu o'rinda, beshinchi ustuvor yo'nalish va unda belgilangan asosiy maqsadlarni keltirib o'tish joiz.

MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

71- maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.

72- maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish.

73- maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish.

74- maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

75- maqsad: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.

76- maqsad: Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

77- maqsad: O'zbekiston tarixini o'rganishva targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.

78- maqsad: Milliy kino san'atini rivojlantirish.

Jamiyatning ma'naviy takomiligi bo'lgan ehtiyoj davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan turli huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 26 martdagi "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5039-son Qarorini keltirish mumkin.

Qarorda quyidagi muhim vazifalarning ijrosiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan:

- «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi» asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari uchun metodik qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, ularni nashr etish va joylarga yetkazish;
- milliy merosimiz, buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissalarini dunyo miqyosida keng targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- sohaga «Raqamli targ'ibot» tizimini joriy qilish maqsadida IT-parklar, innovatsion markazlar va frilanserlar bilan hamkorlikda mobil ilovalar, kompyuter o'yinlari, animatsion mahsulotlar yaratish;
- joylarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni o'rganish, hududiy ma'naviyat va ma'rifat kengashlari faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish, targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ekspertlar guruhlarini qo'llab-quvvatlash;
- ma'naviy-ma'rifiy sohani, adabiyot va kitobxonlikni har tomonlama rivojlantirish, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- mamlakatimiz va xalqaro miqyosda ilmiy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy anjumanlar, festivallar, tanlovlar, xalq sayillari, adabiy-musiqiy kechalar o'tkazish;
- ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy kitob va plakatlarni nashr etish, zamonaviy targ'ibot vositalari va media mahsulotlar yaratish;
- Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari va ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish;
- mahalliy hokimliklar bilan birgalikda olimlar va mutaxassislarni jalb etgan holda sohada faoliyat ko'rsatayotgan targ'ibotchilar malakasini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga qaratilgan yangi loyihalar, kitob, risola va maqolalar, tadbirlar stsenariylarini yaratish bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni shakllantirish hamda bu ishlarga jalb etilgan olim va mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish;
- O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tavsiya etiladigan adiblarning ijod namunalarini, jumladan yosh mualliflarning birinchi kitoblarini nashr etish;
- O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolarining ijodiy kechalarini o'tkazish, adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan uyushma a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish;
- xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari

tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning munosib namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish hamda jahon axborot tarmog'ida keng targ'ib etish; milliy adabiyotni rivojlantirish, adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan hamda mamlakat ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy asarlar mualliflarini moddiy jihatdan rag'batlantirish;

➤ O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hamda uning taniqli a'zolari ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan veb-saytlarni yaratish va ularni yangilab borish.

Yana bir muhim hujjat - bu qabul qilinishi kutilayotgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" kontsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturidir. Davlatimiz rahbari Sh Mirziyoev ishlab chiqiladigan kontsepsiyadan kutiladigan natijalar haqida to'xtalib o'tgan.

- Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

- O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.

- Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi.

- Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

- Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli ishlarni tizimli asosda olib boriladi.

- Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo'ladi.

- Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

Yaratilajak kontsepsiya avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a'zolarining ongi va

tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.


Tarbiyada uzilishga yo'l qo'yib bo'lmazligi, odamlarning yoshi, kasbi, bilimi darajasi va ma'naviy qiyofasiga qarab ma'rifiy ishlarning samarali uslublarini joriy qilish lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shu sababli targ'ibot-tashviqot ishlarini ham ommaviy, ham muayyan ijtimoiy guruhlar, ham individual tarzda olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalari katta ta'sir kuchiga ega. Ochig'i, ularning bu imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalana olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda so'nggi paytlarda kuzatilayotgan turli g'oyaviy va mafkuraviy xurujlarga aks ta'sir ko'rsatishning aniq tizimi shu paytgacha izchil yo'lga qo'yilmaganligi nihoyatda tashvishli hol. Ayniqsa, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizga mutlaqo yot urf- odatlar singdirilayotgani hech bir qolipga sig'maydi.

Qatag'on tushunchasi va uning tarixiy-siyosiy mohiyati

Ushbu mavzuning asosiy g'oyasi tarixiy xotirani faol ijtimoiy-ma'naviy mexanizm sifatida qayta anglashga qaratilgan. Qatag'on davri voqealariga murojaat qilish faqat o'tmishni eslash yoki tarixiy ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi ichki himoya tizimi - ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday immunitet shaxsning adolatsizlikka nisbatan befarq bo'lmazligi, zo'ravonlik va tazyiqni meyor sifatida qabul qilmasligi bilan namoyon bo'ladi.





Qatag'onni faqat tarixiy fojea sifatida qabul qilish uning tarbiyaviy va ma'naviy salohiyatini cheklab qo'yadi. Aslida esa u bugungi avlod uchun o'ziga xos ijtimoiy-ta'limiy maydon, ya'ni saboqlar maktabi vazifasini o'taydi. Ushbu "maktab"da yoshlar adolat tushunchasining qadrini, erkin fikrlashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, shaxsiy va fuqarolik mas'uliyatining ahamiyatini anglab yetadi. Eng muhimi, inson taqdiri bilan Vatan taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ongli ravishda shakllanadi.

Shu ma'noda, qatag'on qurbonlarining xotirasini yod etish yoshlarda vatanparvarlikni hissiy shovqin yoki tashqi shiorlar orqali emas, balki tarixiy ong, axloqiy xulosa va shaxsiy pozitsiya asosida qaror toptirish imkonini beradi. Bunday vatanparvarlik barqaror, tanqidiy fikrga tayangan va mas'uliyat bilan yo'g'rilgan qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Qatag'on siyosatining ijtimoiy-tarixiy mohiyati

Qatag'on siyosati muayyan tarixiy davrda shakllangan totalitar boshqaruv tizimining ichki mohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning asosida fikr xilma-xilligiga nisbatan chuqur qo'rquv va nazoratga intilish yotar edi. Totalitar tuzum uchun mustaqil fikrlovchi shaxs, ayniqsa jamiyatda ma'naviy yetakchilik qila oladigan ziyoli qatlam xavfli kuch sifatida qabul qilingan. Shu sababli milliy uyg'onish, ma'rifat va jamiyatni isloh qilish g'oyalarini ilgari surgan ziyolilar "xalq dushmani", "millatchi" yoki "davlatga qarshi element" degan sun'iy tamg'alar bilan ta'qib ostiga olindi.

Qatag'on nafaqat jismoniy yo'q qilish siyosati, balki ma'naviy sindirish mexanizmi ham edi. Bu jarayon orqali jamiyatda qo'rquv muhiti yaratildi, erkin fikr bildirish xavfli holatga aylantirildi, sukut esa omon qolishning asosiy sharti sifatida shakllandi. Natijada jamiyat intellektual salohiyatidan, ma'naviy yetakchilaridan va taraqqiyotni olg'a siljituvchi g'oyalardan mahrum etildi.

Ushbu tarixiy tajriba yosh avlod uchun muhim ijtimoiy-xulosaviy saboqlarni beradi. Avvalo, erkin fikr va tanqidiy tafakkur jamiyat taraqqiyotining zarur sharti ekanini anglash mumkin. Fikr erkinligi cheklangan joyda ilmiy rivoj, ijtimoiy adolat va ma'naviy yangilanish ham to'xtab qoladi.

Ikkinchidan, adolatsiz va zo'ravon tuzum tashqi jihatdan mustahkam ko'ringan taqdirda ham, ichki jihatdan zaif bo'ladi. Chunki u ishonch emas, qo'rquvga, qonuniylik

emas, majburlovga tayanadi. Bunday jamiyat uzoq muddatli taraqqiyotga qodir emas.

Uchinchidan, qatag'on tarixi Vatan taqdiriga nisbatan befarqlik qanday oqibatlariga olib kelishini yaqqol namoyon qiladi. Fuqarolik pozitsiyasining susayishi, adolatsizlikka ko'nikish va "menga tegmasa bo'ldi" degan munosabat tarixiy fojealarning takrorlanishiga zamin yaratadi. Shu ma'noda, qatag'on saboqlari yoshlarda faqat tarixiy bilim emas, balki mas'uliyatli fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xotira - vatanparvarlikni shakllantiruvchi omil

Tarixiy xotira insonning o'zi kim ekani, qayerdan kelgani va qanday yo'lni bosib o'tganini anglashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy tayanch hisoblanadi. U shaxsni o'z millatining tarixi, taqdiri va qadriyatlari bilan bog'lab, o'tmish, bugun va kelajak o'rtasida uzviy aloqani ta'minlaydi. Xotira mavjud bo'lgan jamiyatda vatanparvarlik tasodifiy hissiyot emas, balki ongli munosabat sifatida shakllanadi.

Qatag'on qurbonlarini yod etish ana shu tarixiy xotirani faol holatga keltiradi. Bu jarayon yosh avlod uchun faqatgina qayg'uli voqealarni eslash emas, balki millat qanday og'ir sinovlardan o'tganini, erkinlik va qadr-qimmat qanday qimmat evaziga qo'lga kiritilganini anglash imkonini beradi. Natijada yoshlar ongida milliy g'urur shakllanadi, ya'ni ular o'z xalqining og'ir tarixiy sinovlarga qaramay saqlanib qolgani, ma'naviy kuchini yo'qotmaganini his eta boshlaydi.

Shu bilan birga, tarixiy xotira yoshlarda mas'uliyat tuyg'usini ham qaror toptiradi. Erkinlik, tinchlik va barqarorlik tayyor holda berilmaganini, balki ko'plab insonlar taqdiri, azob-uqubati va qurbonligi evaziga qo'lga kiritilganini anglash shaxsni befarqlikdan uzoqlashtiradi. Bunday ongli munosabat insonni o'z harakatlari, so'zlari va fuqarolik pozitsiyasi uchun javobgar bo'lishga undaydi.

Tarixiy xotiraning yana bir muhim natijasi - fuqarolik pozitsiyasining shakllanishidir. Qatag'on saboqlari yoshlarga adolatsizlikka nisbatan muhosasiz bo'lish, zo'ravonlik va qonunbuzarlikni oddiy holat sifatida qabul qilmaslik zarurligini uqtiradi. Shu orqali vatanparvarlik faqat hissiy munosabat emas, balki adolatni himoya qilishga tayyor, ongli fuqarolik pozitsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, vatanparvarlik shovqinli shiorlar, rasmiy iboralar yoki tashqi ramzlar bilan cheklanib qolmaydi. U tarixiy ong, axloqiy xulosa va shaxsiy tanlov bilan sug'orilgan ichki qadriyatga aylanadi. Bunday vatanparvarlik barqaror bo'ladi, chunki u unutuvchanlikka emas, xotiraga, befarqlikka emas, mas'uliyatga tayanadi.

Tarbiya jarayonida amaliy shakllar

Yosh avlodda tarixiy ong, fuqarolik mas'uliyati va ongli vatanparvarlikni shakllantirish faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayonda amaliy, interaktiv va tajribaga asoslangan usullar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu shakllar yoshlarni passiv tinglovchidan faol fikrlovchi subyektga aylantiradi.

Avvalo, xotira darslari va ochiq muloqotlar tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi.

Bunday mashg'ulotlar bir tomonlama ma'ruza shaklida emas, balki savol-javob, bahs va fikr almashuv asosida olib borilganda samarali bo'ladi. Xotira darslarida qatag'on mavzusi inson taqdiri, axloqiy tanlov va jamiyat mas'uliyati nuqtai nazaridan muhokama qilinadi. Ochiq muloqotlar yoshlarga o'z fikrini erkin bayon qilish, tarixiy voqealarga shaxsiy munosabatini shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, arxiv hujjatlari va shaxsiy taqdirlar asosida tahlil usuli tarixni "tirik jarayon" sifatida qabul qilishga yordam beradi. Qatag'on davriga oid hujjatlar, maktublar, sud qarorlari yoki biografik ma'lumotlar orqali talabalar voqealarning ortida real inson taqdiri turganini anglaydi. Bu usul tarixni umumiy tushunchalar orqali emas, balki konkret misollar asosida anglashga xizmat qiladi va yoshlarda adolat, hamdardlik hamda mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiradi.

Uchinchidan, muzey va memoriallarga tashrif tarbiyaviy jarayonda alohida ta'sir kuchiga ega. Jumladan, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrif orqali yoshlar qatag'onning ijtimoiy-tarixiy mohiyatini vizual va hissiy darajada qabul qiladi. Muzey muhiti tarixni abstrakt ma'lumot emas, balki millat xotirasi sifatida anglashga yordam beradi. Bu esa yoshlarda "bunday fojealar takrorlanmasligi kerak" degan ongli xulosani shakllantiradi.

Nihoyat, esse va loyiha ishlari orqali mustaqil fikrlashni rag'batlantirish tarbiya jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Esse yozish yoshlarni o'z munosabatini shakllantirishga, tarixiy voqealarni shaxsiy nuqtai nazardan baholashga undaydi. Loyiha ishlari esa guruhda ishlash, fikr almashish, dalil keltirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda tarixiy bilim faqat axborot emas, balki shaxsiy pozitsiyaga aylanadi.

Umuman olganda, tarbiya jarayonida qo'llaniladigan mazkur amaliy shakllar yoshlarda tarixiy xotirani mustahkamlaydi, befarqlikni kamaytiradi va vatanparvarlikni ongli, mas'uliyatli va barqaror qadriyat sifatida qaror toptirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yoshlar ongida qatag'on saboqlari

Hozirgi globallashuv va raqamli axborot muhitida yosh avlod tarix bilan asosan qisqa xabarlar, tasvirlar yoki soddalashtirilgan talqinlar orqali tanishmoqda. Bunday sharoitda tarixiy voqealarning mohiyatiga chuqur kirib bormasdan, ularni yuzaki qabul qilish xavfi kuchayadi. Ayniqsa, qatag'on kabi murakkab va fojeali jarayonlar mazmunan anglanmasa, ular oddiy "o'tmish voqeasi" sifatida ongdan chetlab qolishi mumkin.

Qatag'on mavzusini chuqur, tizimli va dalilli asosda o'rganish esa yoshlar ongida muhim ma'naviy himoya mexanizmini shakllantiradi. Bunday ta'lim orqali yoshlar tarixiy voqealarning qanday sharoitda, qanday maqsadlar bilan va qanday oqibatlar tufayli yuz berganini anglaydi. Natijada ular turli axborot manbalari orqali berilgan biryoqlama yoki manipulyativ talqinlarga tanqidiy yondashish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Qatag'on saboqlari yoshlarning ijtimoiy ongida adolat, haqiqat va inson qadri kabi tushunchalarni mustahkamlaydi. Ular zo'ravonlik va bosimga asoslangan tizim qanday qilib

jamiyatni ma'naviy zaiflashtirishini, qo'rquv orqali boshqarish esa taraqqiyotni to'xtatishini anglay boshlaydi. Bu esa yoshlarni axborot makonida uchraydigan soxta qahramonlar, yolg'on shiorlar va radikal g'oyalarga nisbatan ehtiyotkor qiladi.

Shu bilan birga, qatag'on haqidagi chuqur ta'lim yoshlarda Vatanga munosabatni yangi bosqichga olib chiqadi. Vatanni sevish faqat hissiy tuyg'u sifatida emas, balki uning tarixiy taqdiri, ma'naviy merosi va kelajagi uchun mas'uliyatni his qilish orqali shakllanadi. Yoshlar erkinlik va barqarorlik qanday og'ir sinovlar evaziga qo'lga kiritilganini anglab, ularni asrash zarurligini ongli ravishda qabul qiladi.

Shu ma'noda, qatag'on saboqlari zamonaviy yoshlar uchun o'tmishga qarab qolish emas, balki kelajakni anglash vositasidir. U yoshlarni manipulyatsiyaga moyil iste'molchi ongdan mas'uliyatli, tanqidiy fikrlaydigan va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsga aylantirishga xizmat qiladi. Ana shu asosda shakllangan vatanparvarlik barqaror, ongli va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'ladi.

Qatag'on qurbonlarining xotirasini yod etishni faqat o'tmishda sodir bo'lgan fojeali voqealarga qaytish sifatida tushunish biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Aslida, bunday xotira ishlari jamiyatning kelajagini ma'naviy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan muhim ijtimoiy jarayondir. U orqali jamiyat o'tmishdagi xatolarni tan oladi, ulardan xulosa chiqaradi va bu xatolar qayta takrorlanmasligi uchun ma'naviy kafolat yaratadi.

Qatag'on saboqlari yosh avlod ongida Vatan ozodligi, inson qadri va adolat kabi tushunchalarning haqiqiy qiymatini ochib beradi. Bu qadriyatlar shior yoki abstrakt g'oya sifatida emas, balki aniq tarixiy tajriba orqali anglanadi. Yoshlar erkinlik qanday og'ir yo'qotishlar, inson taqdirleri va ma'naviy qurbonliklar evaziga qo'lga kiritilganini anglab yetadi. Shu orqali ular ushbu qadriyatlarga nisbatan yuzaki munosabatdan voz kechib, ularni asrash zarurligini ongli ravishda qabul qiladi.

Shuningdek, qatag'on qurbonlarini yod etish adolat uchun kurash qanday narx evaziga amalga oshganini ko'rsatadi. Adolat faqat qonunlar yoki rasmiy institutlar bilan ta'minlanmasligi, balki jamiyat a'zolarining axloqiy pozitsiyasi va fuqarolik jasoratiga bog'liq ekanini yoshlar anglaydi. Bu esa ularni befarqlikdan uzoqlashtirib, zo'ravonlik va adolatsizlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi.

Natijada vatanparvarlik hissi tashqi ta'sirlar yoki vaqtinchalik hissiy ko'tarinkilikka bog'liq bo'lmaydi. U tarixiy xotira, axloqiy xulosa va shaxsiy mas'uliyat bilan uzviy bog'langan barqaror qadriyatga aylanadi. Bunday vatanparvarlik ongli bo'ladi, chunki u o'tmish saboqlarini anglashga tayanadi; barqaror bo'ladi, chunki u unutuluvchanlik emas, xotira asosida shakllanadi; mas'uliyatli bo'ladi, chunki u Vatan taqdiriga daxldorlik hissini talab qiladi.

Shu ma'noda, qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlod uchun o'tmish bilan cheklanib qolish emas, balki kelajakni adolat, erkinlik va inson qadri asosida qurishga yo'naltiruvchi ma'naviy yo'l xaritasi vazifasini o'taydi.

31 avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

Har bir millat va elatning o'z tarixi bor. Tarix zamirida esa, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom tuyg'usi mujassam. Sir emaski, yetmish yildan ortiq davr mobaynida davom etgan sobiq sho'ro tuzimi davrida xalqimizning ana shu tuyg'usi toptaldi, tariximizni xolis o'rganishga, milliy, diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga yo'l qo'yilmadi.

O'tgan asr boshidagi oktyabr to'ntarishi oqibatida Turkistonda zo'rlik bilan o'rnatilgan mustamlakachi sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab o'z tasarrufidagi turli o'lkalarda yashayotgan xalqlar boshiga son-sanoqsiz qirg'inlar, dahshatli va alamli kulfatlar olib keldi. Hozir Markaziy Osiyo deb atalayotgan, o'sha davrdagi Turkiston zaminining ilg'or vakillari ana shu dahshatlarga qarshi turdi, istiqlol, erk va milliy-ozodlik uchun kurash olib bordi.

Turli manbalarda ta'kidlanishicha, qatag'on yillarida yuz minglab turkistonliklar Vatandan bosh olib xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi, yuz minglab kishilar Sibirga, Uzoq Shimolga, shuningdek, Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Ural, Qozog'iston, Uzoq Sharq, Kavkaz, Volgabo'yi rayonlariga badarg'a qilindi.

–Ayniqsa, 1937-1938 yillarda o'ta mudhish voqealar yuz bergan, – deydi Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi rahbari, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinov. – Xususan, 1937 yilning 10 avgustidan 1938 yil 1 yanvargacha O'zbekistonda o'n ming yetti yuz kishi qamoqqa olingan. Bulardan uch ming olti yuz o'n uch kishi otildi, yetti ming sakson yetti kishi sakkiz-o'n yil muddatga qamaldi.

Qatag'on, avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi. Faqat 1937 yilning dekabr oyida "uchlik" qarori bilan hukm qilingan uch ming olti yuz qirq to'rt kishidan bir ming to'rt yuz oltmish to'rt nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938 yilning fevralida "uchlik" yig'ilishlarida 2 ming 491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan, shundan 2 ming 86 mahbus otuvga, 398 mahbus o'n yil muddatga, ikki mahbus sakkiz yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Ular asosan o'ziga to'q dehqonlar, ishchi-xizmatchilar, ulamolar, savdogarlar bo'lgan.

Sovet tuzumining qatag'on siyosati diniy nuqtai nazardan og'ir gunoh, siyosiy-dunyoviy jihatdan o'ta dahshatli jinoyat edi. Tariximizning ana shu achinarli, alamli sahifasini yaratish, o'sha achchiq tarixni eslash, undan saboq olish, bunday qatliom haqidagi bor haqiqatni bugungi va kelgusi avlodlarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda istiqlol yillarida tarixiy haqiqatni qaror toptirish, xususan, Vatanimiz ozodligi va erkinligi yo'lida qurbon bo'lgan xalqimiz farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Biroq, bu borada hali oldimizda qiladigan juda ko'p ishlar turibdi.

–Yurtimizda faqat 1937-1953 yillarda qatag'on qilingan 100 ming nafardan ziyod yurtdoshimizdan nari borsa 20-25 ming nafari nomma-nom aniqlandi, xolos, – deydi professor Rustambek Shamsutdinov. – Oldimizda qolganlarini izlab topish, aniqlash, xotirasini abadiylashtirishdek katta, og'ir, lekin xayrli, vazifa turibdi.

Bu yorug' va dorilamon kunlar yo'lida qurbon bo'lganlar ruhini shod etish, tinch-osoyshta zamonning qadriga yetish, shukronalik tuyg'ularini his etish bizga katta quvvat bag'ishlaydi, ruhiyatimizni poklab, yangi-yangi bunyodkorlik ishlariga chorlaydi. Zero, ozodlik uchun kurashgan insonlar xotirasi hech qachon unutilmaydi, xalqimiz qalbida mangu yashaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida mamlakatimizdagi qator oliy o'quv yurtlari, shu jumladan, Farg'ona davlat universiteti tuzilmasida ham Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etilgan.

Muzeydan ne-ne azoblarga solingan minglab ayanchli taqdirlar haqidagi eksponatlar joy olgan. Umuman, muzey jamoasi tomonidan mash'um siyosat qurbonlari xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 oktyabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishida qatag'on qurbonlarini viloyat, tuman va shaharlar bo'yicha noma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to'plash, o'rganish, qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimizning avlodlari va yaqinlari, o'sha davr voqealarini chuqur biladigan kishilarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy materiallar hamda noyob suratlarni to'plash, shuningdek, qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini ilmiy tadqiq etish, ular haqida ilmiy-tarixiy kitoblar, badiiy va hujjatli filmlar yaratish yuzasidan qator vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida bugungi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash, qatag'on qurbonlari xotirasi muqaddas ekanligi alohida qayd etilgan.

Muxtasar aytganda, shu muqaddas zamin, ona yurt tinchligi, mustaqilligi va taraqqiyoti uchun jonini fido qilgan, qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz nomini abadiylashtirish, ularning hayoti, taqdiri haqidagi haqiqatni kelgusi avlodlarga boricha yetkazish har bir yurtdoshimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Nazorat savollari.

1. Sizning fikringizcha yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy ta'lim tarbiya berishda qaysi omil va vositalar kuchliroq samara beradi?

2. O'zingiz yashayotgan hudud yoki mahallada alohida ma'naviy qadriyatlar mavjudmi?
3. Tarixiy xotira nima uchun faol ijtimoiy-ma'naviy mexanizm sifatida qaraladi va u jamiyat ma'naviy barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Qatag'on davri voqealariga murojaat qilish qanday qilib yoshlarda "ma'naviy immunitet"ni shakllantiradi?
5. Qatag'onni faqat tarixiy fojia sifatida qabul qilishning qanday cheklovchi jihatlari mavjud?
6. Qatag'on davri "ijtimoiy-ta'limiy maktab" sifatida qanday tarbiyaviy vazifalarni bajaradi?
7. Qatag'on siyosati totalitar tuzumning qaysi ichki xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi?
8. Qatag'on tarixi yosh avlod uchun qanday fuqarolik va ijtimoiy saboqlarni beradi?
9. Tarixiy xotira vatanparvarlikni shakllantirishda qanday o'rin tutadi va u hissiy vatanparvarlikdan nimasi bilan farq qiladi?
10. Amaliy tarbiya shakllari (muzey, arxiv hujjatlari, esse, loyiha ishlari) yoshlarda qanday shaxsiy va fuqarolik sifatlarni rivojlantiradi?
11. Qatag'on saboqlari zamonaviy axborot muhitida yoshlarni manipulyativ g'oyalardan himoya qilishda qanday ahamiyatga ega?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev.

- Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.

2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent:

«O'zbekiston», 2017.-104 b.

3. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 13 iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu ma'isadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma'ruzasidan [http://uza.uz/oz/politics/qonun va adolat-ustuvorligini taminlash-barcha-ezgu-ma-sadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526](http://uza.uz/oz/politics/qonun_va_adolat-ustuvorligini_taminlash-barcha-ezgu-ma-sadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526).

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy- ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018 y.

Maxsus adabiyotlar

6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Qatag‘on qurbonlari. — Toshkent: Sharq, 2001.

7. Alimova D. A. O‘zbekistonda siyosiy qatag‘onlar tarixi (1917–1953). — Toshkent, 2000.

8. Qodirov A. Qatag‘on yillari fojiasi. — Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

9. Rajabov Q. O‘zbekiston ziyolilari qatag‘on yillarida. — Toshkent, 2003.

III. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>

2. <http://www.norma.uz>

3. <http://www.gov.uz>

4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)

5. <https://president.uz>

6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)

VII. NAZORAT SAVOLLARI

1	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qaysi tamoyilga asoslanib ishlab chiqilgan?
2	Davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish qaysi loyiha asosida amalga oshirish belgilangan?
3	"Xalqparvar davlat" milliy dasturi amalga tatbiq etish qaysi g'oya asosida ishlab chiqilgan?
4	"Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash" maqsadi bo'yicha qanday konsepsiyani ishlab chiqilishi belgilangan?
5	"Legal Tech" platformasi nma?
6	Taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli 3-yo'nalishi nechta maqsadni o'z ichiga oladi?
7	Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha hududlarda birlamchi tibbiy xizmati qanday tamoyil asosida yo'lga qo'yish belgilangan
8	Har bir tuman budjetining necha foizini "Fuqarolar budjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish belgilangan?
9	Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan nechta Prezident qarori qabul qilindi?
10	Taraqqiyot strategiyasiga ko'ra davlat qarzini boshqarishda yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori yiliga qancha bo'lishi belgilangan?
11	Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish qaysi shaharda amalga oshiriladi?
12	Taraqqiyot strategiyasining 6-yo'nalishi qanday nomlanadi?
13	Ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash orqali qaysi ta'lim muassasasini ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish nazarda tutilgan?
14	Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish bu?
15	Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar qanday reyting qatoriga kirish rejalashtirilgan?
16	Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish qaysi ustuvor yo'nalish maqsadlarida belgilangan?
17	Inson kapitali nima?
18	"Yashil iqtisodiyot" bu?
19	Ijtimoiy sheriklik bu?

20	2023 yil 11 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
	“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Strategiyada nechta ustuvor yo'nalish bor?
21	Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
22	2023 moliya yilidan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar qanday tartibda shakllantirilishi belgilangan?
23	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
24	Qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat asosida Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta'lim muassasasi etib belgilangan?
25	Yoshlar bilan ishlashning "mahalla-sektor-tuman (shahar)-hudud-respublika" tizimi qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatga asosan joriy etildi?
26	“2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi VM-qaroriga ko'ra Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qanday dastur amalga oshirilmoqda?
27	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
28	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan davrda ustuvor yo'nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab bergan normativ-huquqiy hujjat qanday nomlanadi?
29	Strategiya tushunchasi ma'nosi
30	Ma'naviyat bu
31	Konstitutsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
32	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida “O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi” normasi belgilangan?
33	Jamoat birlashmalariga nimalar kiradi?
34	Jamoat birlashmasi deb nimaga aytiladi?
35	Fuqarolik jamiyati ta'rifi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating
36	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot qaysi prinsip asosida rivojlanadi?
37	Turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadigan fuqarolik jamiyati instituti qaysi?
38	O'zbekiston xalqi nomidan faqat kim ish olib borishi mumkin?

39	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini kredit-modul tizimiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha yangi tizim qaysi viloyatlarda tajriba va sinovdan o'tkazildi?
40	Jamoatchilik nazorati subektlari bu
41	"Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish "O'zbekiston — 2030" Strategiyasining nechinchi ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan?
42	"Miranda qoidasi" bu
43	"Habeas corpus nima?"
44	"Shaxsni ushlash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-modda. Ushbu qoida xalqaro huquqda qanday ataladi?
45	Yoshlarning bandligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan yo'nalish -
46	Qatag'on siyosati totalitar tuzumning qaysi ichki xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi?
47	Qatag'on tarixi yosh avlod uchun qanday fuqarolik va ijtimoiy saboqlarni beradi?
48	Tarixiy xotira vatanparvarlikni shakllantirishda qanday o'rin tutadi va u hissiy vatanparvarlikdan nimasi bilan farq qiladi?
49	Amaliy tarbiya shakllari (muzey, arxiv hujjatlari, esse, loyiha ishlari) yoshlarda qanday shaxsiy va fuqarolik sifatlarni rivojlantiradi?
50	Qatag'on saboqlari zamonaviy axborot muhitida yoshlarni manipulyativ g'oyalardan himoya qilishda qanday ahamiyatga ega?

